

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

Murodova Zulayho Botirali qizi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: XISLATNING O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA TUTGAN
O'RNI**

Ilmiy rahbar: f.f.n. Sh.Amonov

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I BOB. TOSHKENT ADABIY MUHITI VA XISLAT IJODI	
1.1. XX asr boshlari adabiyotida Xislatning o‘rnı.....	7-13
1.2. O‘zbek adabiyotshunosligida Xislat ijodining o‘rganilishi.....	14-17
1.3. Xislatning noshirlik, tarjimonlik va xattotlik faoliyati.....	18-29
 II BOB. SHOIR LIRIKASINING MAVZU KO‘LAMI, JANRIY VA BADIY XUSUSIYATLARI	
2.1. Shoir lirkasida ishq, hajv, ilm-ma’rifat mavzularining badiiy talqini.....	30-36
2.2. Xislat ijodida davr voqealarining aks etishi.....	37-48
2.3. Shoir lirkasining janriy va badiiy xususiyatlari.....	49-58
UMUMIY XULOSALAR.....	59-61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	62-64

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. Ajdodlarimizning asriy orzusi bo‘lgan milliy istiqlolga erishilganimizdan so‘ng ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohalari qatori ma’naviyatga, madaniy merosga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchaydi. Buning natijasi o‘laroq, sho‘rolar davri adabiyotshunosligida hayoti va ijodiy merosi bir tomonlama tadqiq etilgan yoki butunlay chetga surib qo‘yilgan ko‘plab shoiru adiblar ijodiy merosini ilmiy o‘rganish, xolis baholash masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik madaniy va ma’naviy merosimizning ajralmas tarkibiy qismidir. U o‘ziga xos taraqqiyot tamoyillariga, boy an’analariga ega. XX asr avvalida bu an’analar ko‘p jihatdan yangilandi, boyitildi. Xalqimizni bu merosdan bahramand qilish maqsadida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ajdodlarimizning o‘tmish qa’rida unutilayozgan, tarix soyasida qolib ketgan asarlarini izlab topish, o‘rganish va o‘z o‘quvchisiga yetkazish shular jumlasidandir.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX boshlarida shakllangan milliy uyg‘onish davri adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida adabiy-estetik hodisa hisoblanadi. Negaki, bu davr ijodkorlari an’anaviy she’riyatni ham mazmun, ham shakl jihatdan yangiladilar. Millatni birdamlikka chorlovchi ma’rifatparvarlik ruhidagi asarlar bilan nafaqat adabiyot, balki jamiyat va millat hayotida yuksalish bosqichini boshlab berdilar. Toshkent adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri Sayyid Haybatullaxo‘ja Sayyid Orifxo‘ja o‘g‘li – Xislat ana shunday ijodkorlar sirasiga kiradi.

O‘zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan Xislat asarlarini ilk manbalar asosida o‘rganish, o‘zbek adabiyotshunosligida erishilgan so‘nggi ilmiy-nazariy yutuqlarga tayanib tadqiq qilish, asarlari matnini o‘zaro qiyosiy o‘rganishni amalga oshirish, shoir hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar tahlil qilish hamda xolisona baholash ishning dolzarbligini belgilaydi. Xislatdan bizgacha lirik turning g‘azal, masnaviy, murabba’, muxammas, musaddas, qit’a, fard, qasida kabi janrlarida uch ming misraga yaqin she’rni o‘z ichiga olgan adabiy meros

yetib kelgan. She’rlari XX asr boshlarida vaqtli matbuotda, tazkira va bayozlar, shoirning shaxsiy arxivida nashr etilgan. O‘z davri adabiy muhitida faol ishtirok etgani, ayniqsa, Muqimiy, Kamiy, Mavlaviy Yo‘ldosh, Miskin, Sidqiy-Xondayliqiy, Haziniy, Vasliylar bilan yaqin aloqada bo‘lganligi, ular ijodiga munosabati, g‘azallariga nazira, muxammaslar bog‘lashi ham uning yetuk ijodkor bo‘lganidan darak beradi. Shu nuqtai nazardan ham ushbu mavzuni o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Milliy uyg‘onish davri adabiyotining ko‘p ijodkorlari to‘g‘risida qator tadqiqotlar yaratilgan. Shoir Xislat hayoti va ijodi haqida shu davr adabiyotining yirik tadqiqotchilari professorlar Abdulhamid Jalolov, Begali Qosimov, akademik Naim Karimov, professorlar Ulug‘bek Dolimov, Nurboy Jabborov kabi olimlar tadqiqotlarida alohida o‘rin ajratildi. Asarlari qisman chop etildi. Haybatullaxo‘ja Xislat ijodi bugungi kun adabiyotshunosligining ham diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Biz ham mazkur ishimizda adib ijodini imkon darajasida batafsil tadqiq qilish niyatidamiz.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy ishlari rejasiga muvofiq bo‘lib, O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining taraqqiyot muammolarini tadqiq etish, unda Haybatullaxo‘ja Xislat ijodining tutgan o‘rnini belgilashdan iborat. Q’oyilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar bajariladi:

- Haybatullaxo‘ja Xislatning hayoti va ijodi o‘rganiladi;
- Haybatullaxo‘ja Xislatning asarlari mundarijasi o‘rganilib, ularda tasvirlangan muammolar tahlil qilinadi;
- Shoirning milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tarixiy taraqqiyotidagi o‘rni, xizmatlari ko‘rsatib beriladi.

Ishning ilmiy yangiligi Haybatullaxo‘ja Xislatning Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tarixiy taraqqiyotida, xususan, Toshkent adabiy muhitida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish, asarlarining janr tabiatini, mavzu ko‘lagini, ularning yetakchi taraqqiyot tamoyillarini ilk bor tahlil va tadqiq etish bilan belgilanadi. Ular yaxlitlikda ishning ilmiy yangiligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ishning ilmiy yangiligi yana quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- milliy uyg‘onish davri adabiyotida Xislat ijodining o‘rni o‘rganildi;
- shoir nazmiy asarlarining mavzu ko‘lami aniqlanib, ilmiy tahlil etildi;
- Xislat lirik she’rlarining janrlar tasnifi amalga oshirilib, poetik janrlar kesimida tadqiq qilindi;
- Xislat she’rlarining badiiy xususiyatlari tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va tadqiq usullari.

Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi, ma’naviyat bobidagi jiddiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishida milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Mavzuni tadqiq etishda, belgilangan masalalarni yoritishda Prezident Sh.Mirziyoyev asarlari va nutqlaridagi milliy ma’naviy merosni o‘rganishga doir ko‘rsatmalardan, mustaqillikning g’oyaviy asoslari, milliy mafkura masalalariga bag’ishlangan dasturiy ahamiyatga molik hujjat va asarlardan bitiruv malakaviy ishga metodologik asos sifatida foydalanildi.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishda o‘zbek adabiyotshunoslaridan A.Qayumov, B.Qosimov, A.Jalolov, U.Dolimov, N.Rahmonov, N.Jabborov, B.Karimov, U.Jo‘raqulov kabi olimlarning nazariy va metodologik qarashlariga hamda ularning tadqiqotlaridagi ilg‘or tajribalar va yutuqlarga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ish mavzuni o‘rganish jarayoni orqali badiiy so‘z san’atida, xususan, milliy uyg‘onish davri adabiyotida Xislat ijodining muhim o‘rni borligi haqida ilmiy-amaliy tushuncha hosil qilindi. Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari muhim o‘rin tutadi. Chunki, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida milliy uyg‘onish davri adabiyoti va uning o‘ziga xos xususiyatlari, davr ijodkorlarining uslubiy qirralari,

ijodkorlar qo'llagan mavzular doirasi haqida nisbatan keng nazariy ma'lumotlar o'qitiladi. Bitiruv malakaviy ishida tahlil ob`yektiga tortilgan adabiy material hamda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan, umumlashtiruvchi fikrlardan milliy uyg'onish davri adabiyoti tarixini kengaytirishda, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, o'rta maxsus ta`lim tizimi hamda akademik litseylarning yuqori kurslar talabalari uchun tanlov va ixtisoslik mashg'ulotlari o'tishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot materiallari va ilmiy kuzatishlar shoir ijodiga bag'ishlangan risola, qo'llanma hamda monografiyalar yaratishda, adabiy portret yaratishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining obekti va predmeti sifatida Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish" (2002), Naim Karimovning "XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari" (2008), Abdulhamid Jalolovninng "Ozodlikni ulug'lab" (1987), "XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti" (1991), "O'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti" (1978) monografiyalari va Xislatning "G'azallar" va "Tarannum" singari she'riy to'plamlari olindi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, 6 faslni o'z ichiga olgan ikki asosiy bob, umumiyl xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan.

I BOB. TOSHKENT ADABIY MUHITI VA XISLAT IJODI

1.1. XX asr boshlari adabiyotida Xislatning o‘rni

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston adabiyoti va madaniyati tarixida Toshkent adabiy muhitining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu davrda Toshkent shahri ma’rifatchilik harakatining eng rivojlangan markazlaridan biri edi. Bu harakatning boshida Toshkent shoirlarining sardori deya e’tirof etilgan Karimbek Kamiy, Gulshan, Ahqar, Almaiyl, Abdulla Avloniy, Tavallo, Miskin, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar turdilar. Ushbu adabiy harakatning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Sayyid Haybatullohxo‘ja Sayyid Orifxo‘ja o‘g‘li Xislatning ijodiy faoliyati e’tiborga molikdir.

Sayyid Haybatullohxo‘ja Sayyid Orifxo‘ja o‘g‘li o‘zbek jadid adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biridir. U o‘sha davrning ko‘plab ijodkorlari singari asosan an’anaviy ishqiy she’riyat bilan shug‘ullangan bo‘lsada, davr hodisalari ta’siri tufayli hayotdagi o‘zgarishlarga, xususan, yangilanayotgan adabiyotga rag‘bat bildirgan shoirlardan.

Sayyid Haybatullohxo‘ja 1880-yil 10-mayda Toshkentning Chorsu mavzesida tug‘ilgan. Otasi qalandartabiat kishi bo‘lganligi bois u uch yoshidan boshlab farzandsiz ammasi Risolat ayaning qo‘lida tarbiyalangan hamda ona tomondan bobosi Mahmudxon va buvisi Shamsioyimning moddiy ta’midotidan bahramand bo‘lgan. Olti-yetti yoshida maktabga borib, xat-savod chiqargan. Dastlab Shamsioyimning tashabbusi bilan Ko‘kchadagi bir eshon oyimdan, so‘ngra Toshkentning Ishqobod mahallalik Nuriddin qorining xotini Roziya oyimdan dars oladi. Haybatullohning xat-savodi mana shu bilimdon ayol Roziya otindan chiqdi. Shu tariqa Haybatullaxo‘ja mahalla maktabxonasiga deyarli savodxon holda kirib boradi. Yosh Haybatullaxo‘ja maktabda o‘qib yurgan kezlarida Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Bedil asarlarini berilib mutolaa qiladi. Bu asarlarni o‘qigani sari unda adabiyot va she’riyatga havas kundan kunga ortib boradi.

Ayrim manbalarda aytishicha, she’riyatga bo‘lgan mayl Xislatda juda barvaqt uyg‘ongan. U 9 yoshidan mumtoz shoirlar ta’sirida g‘azal yozishni mashq qila boshlagan. Lekin bu “g‘azal”lar “yosh bola”ning mashqlari bo‘lganligi sababli u tarjimai hollarinig birida she’riy ijodining debochasini madrasadagi tahsil yillari bilan bog‘lab, bunday yozadi: “Ammo madarasaga chiqish bilan barobar she’r o‘qish, she’r yozishga berildim, ertayu kech fikrim she’rni qanday o‘qish, qanday yozish bo‘ldi. Hatto ba’zi domlalar: “Ilmsiz bo‘lib qolasan, she’rga ko‘p urinma”, - deb qaytarur edilar. So‘zlariga quloq solmasdan, tobora she’r yozishga shavqlanardim”¹.

Adabiyotshunos olim professor B.Qosimov Haybatullaxo‘janing 14-15 yoshlaridan she’rlar mashq qila boshlaganini ta’kidlaydi. Bizningcha ham, bu haqiqatga yaqinroq.

Balog‘atga yetib qolgan Haybatullohxo‘ja 16 yoshidan “Ko‘kaldosh” madrasasiga chiqib, mashhur mudarris Eshonxo‘ja qori qo‘lida tahsil ola boshlaydi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, Haybatullohxo‘ja faqat Eshonxo‘ja qori qo‘lida tahsil olibgina qolmay, “Xoja Ahror” madrasasida Muxtorxon mudarris, “Kesakqo‘rg‘on” madrasasida Shomuhiddin mudarrislardan ham tahsil olgan. Shu tariqa u zo‘r ishtiyoq bilan madrasaga qatnab, imkon boricha mukammal tahsil olishga harakat qiladi. Ammo o‘sha davrning aksariyat ilm va ijod ahli biror kasb yoki hunar orqasidan halol mehnat orqasidan topilgan daromad evaziga ro‘zg‘or tebratishgan. Haybatullohxo‘ja ham shu an’anani munosib davom ettirib, hunar o‘rganishga kirishadi. U dastlab sebzorlik Qoraxo‘ja degan fonuschi ustaga shogird tushib, bir yil davomida fonuschilik kasbi bilan mashg‘ul bo‘ladi. So‘ngra Qo‘rg‘ontegi mahallalik usta Soliga shogird tushib, duradgorlik kasbini o‘rganadi.

Ana shu paytlarda ham ilm va badiiy ijoddan qo‘l uzmagan Xislat xalq orasida shoir sifatida ancha tanilib qoladi.

Xislatda she’riyatga bo‘lgan muhabbatning uyg‘onishida o‘sha yillarda Toshkent shoirlarinig peshqadami bo‘lgan Karimbek Kamiyning xizmatlari,

¹ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008. –B. 64-65.

ayniqsa, salmoqli. Kamiy yosh shoirni Muqimiy, Oraziy, Toshxo‘ja Asiriy kabi adiblar bilan tanishtiradi. Bu to‘g‘rida Xislat o‘z tarjimai holida shunday yozadi: “Qazoro, bir o‘rtog‘imning uyiga mehmon bo‘lib bordim. Tokchada bir kitob turibdi, olib ochib ko‘rsam, chiroylik xat bilan “G‘azali Mavlono Kamiy Toshkandiy” deb ustiga yozilgan. Kamiy domlani axtara boshladim.

Xullasi kalom, qidira-qidira “Beklarbegi” madrasasidan topdim. Ixcham, shinam soqol, kamgap, serzavq, noziktabiat odam ekan. O‘zimni she’rga havasim borini arz qildim. Kamiy domla “juda yaxshi” deb xursand bo‘ldi. O‘shal kundin e’tiboran meni tarbiyat qila boshladi². Shu tariqa Karimbek Kamiy shoir Xislatning bir umrlik ustozi bo‘lib qoldi.

Mo‘minjon Muhammadjonov “Toshkent shoirlarining tarjimai hollari” tazkirasingin Xislatga bag‘ishlangan bobida 1890-1892 yillarni nazarda tutib, bunday yozgan edi: “Shu choqlarda Karimbek Sharifbek o‘g‘li – mavlono Kamiy bilan tanishdi. Bu odam – shoir Kamiy Muqimiy va Furqat barobaridagi bir shoir edi. Shoир Xislat mavlono Kamiyning fazlu balog‘atini bilgandan keyin uni birinchi ustod sifatida ushlab oldi. Qayerga borsa, birga bo‘ldi... G‘oyatda nozuk tabiatlik bu ustod Xislatning ixlosiga yarasha tarbiya qilar, she’r va g‘azallar aytish yo‘llaridan ba’zi bilmagan nuqtalarini o‘rgatar va o‘sha zamonning adib va shoirlari bilan tanishtirar edi. Shu shoir Kamiy vositasi bilan Yusuf Saryomiy, Hoji Muhyi Ho‘qandiy, Mavlono Sayidahmad Vasliy Samarqandiy, Asiriy Ho‘qandiy va boshqa mashhur shoirlar bilan tanishdi va ham bir qanchalaridan “Bedil” o‘qib foydalandi, Bedilning ma’nosini o‘rganishdagi ustodi Kamiy edi”.

Xullas, Xislat, Miskin, Sidqiy Xondaqliqiy singari yosh qalam ahllari Ko‘kaldosh madrasasida tahsil ko‘rganlariga qaramay, Kamiyning “Beklarbegi” madrasasidagi hujrasida oqshomdan tongga qadar davom etgan she’rxonliklarda o‘zbek mumtoz she’riyatining bilimdonlari va aruznavis shoirlar sifatida shakllandilar.

² Jalolov A. Ozodlikni ulug‘lab. – T.: Fan, 1987. –B. 10.

Xislat Kamiyning “Beklarbegi” madrasasidagiana shu “adabiy maktab”ida qalamini obdon charxladi. Uning Xislat taxallusi bilan dunyoga kelgan g‘azallari ustoz tomonidan yuqori baholanib, To‘ychi hofiz, Akbar hoji Haydarov, G‘ulom G‘aniyev kabi singari o‘z davrining mashhur xonandalari ijrosida Toshkent aholisi o‘rtasida katta shuhrat qozonadi.

Xislatning 1917 yil voqealariga qadar ijodidagi e’tiborga sazovor voqealardan biri uning “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan hamkorlik qilishidir. U 1914 yil mazkur gazeta nashr etila boshlashi bilan shu tarixiy voqeani olqishlovchi, o‘zining Munavvarqori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo‘jayev singari taraqqiyarvar kishilar maslakdosh ekanligini ko‘rsatuvchi va shu yaqinlik bilan faxrlanuvchi kishi ekanligini ko‘rsatadi. U gazetaning 6-sonida e’lon qilingan she’rida qalbidagi bunday samimiy tuyg‘ularni ifodalab yozadi:

*Dilimning orzu-yu muddaosi,
Edi doim bu “Turkiston sadosi”.*

*Hazoron shukrkim, chiqdi quyoshdek,
Jahonni aylabon ravshan ziyosi.*

*Muning nashriga qilsam etgay,
Nisori molimu jonim fidosi.*

*Yozilg‘on so ‘zlari har qaysi durdin,
Ziyodlik aylagay duru bahosi...*

Afsuski, 1917 yildan keyin Xislat avvalgidek o‘lmas mavzularda zavq-shavq bilan ijod qila olmadi. Shunga qaramay, “Qissai Barzuyi sher” (Firdavsiy), “Mushuk ila sichqon” (Ubayd Zokoni) asarlarining Xislat tarjimasida nashr etilganini keyingi asarning esa 40-yillarga qadar o‘n yil davomida o‘rta maktab adabiyot majmularida e’lon qilib kelingani alohida ta’kidlash zarur. Xislatning bu asarlardan tashqari, Nizomiyning “Layli va

Majnun” dostonini nasriy, “Non va halvo” arab va fors hikoyalari to‘plamini esa she’riy yo‘l bilan tarjima qilganligi ma’lum.

Xislat hassos lirik shoir bo‘lish bilan birga hajviy she’rlar ham yozgan. Uning bunday she’rlari 1922 yildan boshlab “Mushtum” jurnalida “Quyon” va “Pashmak” imzolari bilan chop etila boshlangan. Bu Xislat va u mansub bo‘lgan adabiy muhit vakillariga xos bo‘lgan ijodiy jihat bo‘lib, buni deyarli barcha adiblar ijodida ko‘ramiz.

Shunday boy bilimga ega bo‘lgan, g‘azallari o‘zbek xalqining og‘zidan tushmagan, o‘z asarlari va tarjimalari bilan yosh avlodni sharqona axloq va odob ruhida tarbiyalashga intilgan shoir hatto el-yurt o‘rtasida shuhrat qozongan yillarida ham och-yalong‘och qolib, bola-chaqasini boqish uchun durudgorlik ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldi. 1927 yildan boshlab to‘rt yil “Selmarsh” zavodi qurilishida, to‘rt yil yog‘och ishlovchilar zavodida, uch yil poyafzal fabrikasi qurilishida duradgor usta bo‘lib xizmat qildi. Holbuki, u shu yillarda ham jadid adabiyotining vakili sifatida yoshlarni o‘qishga, zamon bilan barobar odim otishga da’vat etuvchi she’rlari bilan xalqi va vataniga astoydil xizmat qilayotgan shoir edi:

*O‘qing, farzandi zebosiz, zamon sizlarga xo‘b boqdi,
Bo‘ling alloma odam siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.
O‘tibdur keksalar umri base kulfat, nadomatda,
Oling ibrat bu ishdan siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.
Ochildi qanchalar dorulfununu texnikum, maktab,
Qiling jahdu jadallar siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.
Zamon Aflotuni tengsiz muallimlar bo‘lub rahbar,
Qo‘ying ixlos alarga siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.*

Har qanday xalq va mamlakatning kelajagi yoshlar qo‘lida ekanini yaxshi bilgan shoir ularning ma’naviy barkamol, zamonaviy ilm-fan va texnikani mukammal egallagan kishilar bo‘lib ulg‘ayishlarini orzu qilgan edi.

O‘zbek adabiyoti tarixida bir xil taxallusda ijod qilgan shoirlar oz emas. Bu hol o‘sha ijodkorlar biografiyasini o‘rganishda muayyan

tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Xislat va uning taxallusdoshlari faoliyatini o‘rganish ana shu jihatdan ahamiyatlidir. Ilmda turkiy xalqlar adabiyotida Xislat taxallusli ikki ijodkor yashab o‘tgani e’tirof etiladi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim Po‘latjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumi” asaridir³. Ular haqida muallif shunday ma’lumot beradi:

Xislat – bu shoir asli uyg‘urlardan bo‘lib, Qashqar shaharidandur. Ho‘qand shahariga 19 nchi asr boshlarida kelib to‘xtab Qatag‘on dahasi bog‘-joy etib mutavattan bo‘lib qolmishdir. Bu kishi to‘g‘risida Fazliy tubandagicha masnaviy aytadur. Nomi to‘g‘risida biror so‘z yo‘q. Masnaviy budur:

*Erur Xislat ul Qashg‘ar shoiri,
Ki to ‘ti bilan bulbulning uldur biri
Ko ‘ngil rishtasin Qoshg‘ardin uzub,
Bu Ho ‘qand aro istiqomat tuzub.
Erur bu g‘azal u xirad peshadin,
Farah topdi Fazliy bu andishadin.*

Shundan so‘ng muallif besh baytdan iborat “o‘ynamoq” radifli g‘azalni keltiradi.

Tazkirada nomi qayd etilgan Xislat taxallusli ikkinchi ijodkor biz o‘rganayotgan toshkentlik shoir Sayyid Haybatullaxo‘ja Xislatdir. Tazkirada bu shoir haqida ancha keng ma’lumot berilganiga qaramasdan ba’zi e’tirozli o‘rinlar mavjud. Masalan, muallif Xislatni “1882 nchi yilda tug‘ilmishdur”, - deydi. Xuddi shu kabi san’atshunos Muzaffar Asadullayev tomonidan nashrga tayyorlangan va Xislatning lirik merosi hamda u haqidagi bir qator maqolalar o‘rin olgan “Tarannum” nomli kitobida ham shoirning tug‘ilgan yilini 1882 yil deb ko‘rsatadi.

Lekin, bizningcha, bu to‘g‘ri emas. Negaki shoir ijodi to‘g‘risida jiddiy tadqiqot ishlarini olib borgan, hatto o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida bu mavzuda keng o‘rin ajratgan, qolaversa, Xislat ijodi haqida “Ozodlikni

³ Po‘lotjon Domullo Qayyumov. Tazkirai Qayyumi. – T.: O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti nashriyoti, 1998. II jild. – B. 289, 448-450.

ulug‘lab” nomli risola e’lon qilgan taniqli olim Abdulhamid Jalolov shoirning tug‘ilgan yilini “1880 yil” deb ko‘rsatadi. Xuddi shunday milliy uyg‘onish davri adabiyotining zabardast tadqiqotchilar professorlar Naim Karimov va Begali Qosimovlar ham Xislatning tavallud sanasini “1880 yil” deb qayd etishadi. Hatto shoirning zamondoshi Mo‘minjon Toshqin ham o‘z tazkirasi “Toshkent shoirlarining tarjimai hollari”da Xislatning tug‘ilgan yilini “1880 yil” ekanligini qayd etadi. Shulardan xulosa qilish mumkinki, Xislat 1880 yilda tavallud topgan.

Bundan tashqari, Qayyumiylar o‘z tazkirasida “Tuhfai Xislat”ni tushirib qoldirgan holda Xislat bayozlarining sonini uchta deb ko‘rsatadi.

1.2. O‘zbek adabiyotshunosligida Xislat ijodining o‘rganilishi

Oktabr to‘ntarishidan keyin sobiq Sho‘ro arboblari Toshkent adabiy muhitini tan olmadilar va uning namoyandalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri nafis san’at maydonidan surib chiqardilar. Oqibatda, bir qator Toshkent adiblari, shu jumladan, Xislat ijodi ham e’tibordan chetda qolib keldi.

Ammo oradan o‘ttiz yil o‘tgach, qirqinchi yillarning oxirida ulug‘ adib Oybek tavsiyasi bilan yozuvchi va olim Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘li Toshqin yuzga yaqin Toshkent adabiy muhiti namoyandalari hayoti va ijodini qalamga olib, “Toshkent shoirlarining tarjimai hollari” nomi ostida noyob tazkira yaratdi. Ana shu tazkirada Xislat hayoti va ijodi aniq ma’lumotlar asosida yoritildi. Unda muallif 1890-1892 yillarni nazarda tutib, bunday yozgan edi:

“Shu choqlarda Karimbek Sharifbek o‘g‘li – mavlono Kamiy bilan tanishdi. Bu odam – shoir Kamiy Muqimiyl va Furqat barobaridagi bir shoir edi. Shoir Xislat mavlono Kamiyning fazlu balog‘atini bilgandan keyin uni birinchi ustod sifatida ushlab oldi...”

G‘oyatda nozuk tabiatlik bu ustod Xislatning ixlosiga yarasha tarbiya qilar, she‘r va g‘azallar aytish yo‘llaridan ba’zi bilmagan nuqtalarini o‘rgatar va o‘sha zamon adib va shoirlari bilan tanishtirar edi. Shu shoir Kamiy vositasi bilan Yusuf Saryomiy, Hoji Muhyi Ho‘qandiy, Mavlono Sayid Ahmad Vasliy Samarqandiy, Asiriy Ho‘qandiy va boshqa mashhur shoirlar bilan tanishdi va ham bir qanchalaridan “Bedil” o‘qib foydalandi, Bedilning ma’nosini o‘rganish to‘g‘risidagi katta ustodi mavlono Kamiy edi”.

Adabiyotshunoslikda Xislat ijodining o‘rganilishini bevosita o‘sha davr adabiyotining tadqiqotchilaridan biri olim Abdulhamid Jalolov nomi bilan bog‘lash mumkin.

Aniqrog‘i, olim Xislat ijodini adabiyotshunoslikka olib kirdi. Shoir vafotidan keyin dastlabki ilmiy maqola ham uning qalamiga mansub edi⁴.

⁴ Jalolov A. Xislat. “O‘zbek tili va adabiyoti” j. 1968, №1

Shundan so‘ng olim Xislatning tarjimai holini nashrga tayyorlaydi⁵. 1971 yilda esa, “G‘azallar” nomi ostida shoirning bir turkum she’rlarini ilk bor chop ettirdi (Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, -1971). “O‘zbek adabiyotining kenja vakili” sarlavhasi ostida bu kitobga yozilgan so‘zboshida Abdulhamid Jalolov shoir Xislat hayoti va ijodi haqida kengroq fikr yuritdi. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida ham keng o‘rin ajratadi⁶.

1978-yilda Abdulhamid Jalolov 1905-1917-yillar oralig‘idagi o‘zbek adabiy jarayoni to‘g‘risidagi tadqiqotini “O‘zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti” nomi bilan monografiya tarzida nashr ettirdi. Bu kitobda Xislat ijodiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Olimning Xislat ijodini o‘rganish borasida eng katta ishlaridan biri 1987 yilda “Ozodlikni ulug‘lab” nomi bilan “Xislat ijodi haqida adabiy portret” risolasining chop ettirilganidir.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, Abdulhamid Jalolov o‘z tadqiqotlarida hukmron mafkura va davr nuqtai nazaridan yondashib, uning asarlarini imkon boricha sho‘roviy mafkuraga moslashtirib talqin qilgan.

Vaholanki, Xislat aynan mafkuraviy jihatdan Sho‘roga nomunosib shaxs sifatida inqilobning dastlabki kunlaridayoq adabiyot maydonidan chetlatiladi va hatto hibsga olinadi.

Ma’naviy jihatdan esa, Oktabr to‘ntarishi yuz bergen vaqtda Xislatning ustozi Mavlono Kamiy hayot bo‘lib, bu inqilobni u “shikoyatnomai Kamiy az inqilobi zamona va ahli zamona” she’rini yozish bilan kutib oldi. Mana o‘sha she’rdan bir parcha:

Inqilobi zamona ermaslar,

Qildi oliyni pastlar pomol.

Zoti neku asllar g‘ayr erur,

Jonishin badasilu ham arzol.

⁵ Qarang: “O‘zbek tili va adabiyoti” j. 1969, №4

⁶ B.Qosimov. Milliy uyg‘onish. T., Ma’naviyat, -Б.302

*Sherlar o‘rnig‘a o‘tirmishdur,
Go‘ru rubohu itu qushu shog‘ol.*

Agar shoir Xislat inqilobning birinchi kunidanoq faxr bilan kuylashga kirishganida edi ustozni Kamiy ijodiga nisbatan bepisandlik qilgan bo‘lardi.

Shuning uchun Xislat o‘zining Sho‘rolarga bag‘ishlangan bir necha xitobnamo she’rlarini inqilobdan ancha keyin, qatag‘ondan qutilib qolish uchun yozdi.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yirik tadqiqotchisi professor Begali Qosimov o‘zining “Milliy uyg‘onish” nomli monografiyasida Xislat ijodiga alohida o‘rin ajratdi. Unda shoirning yoshlik yillari, ustozlari, tahsili, kasb-kori, uning hayotida yuz bergan turli voqealar munosabati bilan asosli faktlar keltiradi. Xislatning bayozlari, tarjimalari, noshirlik faoliyati xususida to‘xtalib o‘tdi⁷.

Xislat hayoti va ijodi haqida ma’lum kuzatishlar olib borgan zahmatkash olim professor Naim Karimov ham shoir tarjimai holiga oid ilmiy qimmatga ega bo‘lgan ma’lumotlar xususida to‘xtaladi⁸.

60-yillarning ikkinchi yarmida o‘zbek fani va madaniyatida boshlangan yangilanish jarayonida Xislat nomi ham yuzaga chiqdi. Taqdir fojeali kechgan “Tirik satrlar” to‘plamiga Xislatning ham she’riy asarlari kiritildi.

Xislat ijodiga bo‘lgan qiziqish bugungi kunda ham yuqori bo‘lib, adabiyotshunos Muhammadali Qo‘smodoqovning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2007-yil 12-may sonida Xislat eshon haqidagi kattagina maqolasi e’lon qilindi.

2009-yilda Xislatning bizga ma’lum lirik merosining san’atshunos Muzaffar Asadullayev va adabiyotshunos olim To‘xtamurod Zufarovlar tomonidan bir to‘plam holida chop etilgan “Tarannum” nomli kitobi shoir ijodiy merosi haqidagi tasavvurlarimizni boyitishi bilan diqqatga sazovordir.

⁷ Qosimov B. Milliy uyg‘onish. –T Ma’naviyat. 2002. –B. 302-307

⁸ Karimov N. XX asradabiyoti manzaralari. –T O‘zbekiston. 2009. –B. 62-76

Negaki, kitobda nafaqat Xislatning she'riy asarlari, tarjimalaridan namunalar keltirilgan, balki shoirni yaqindan bilgan kishilarning bir qator esdaliklari ham keltirilganki, ular shoir hayoti va ijodini chuqurroq tadqiq qilishda qimmatli manba vazifasini o'taydi.

1.3. Xislatning noshirlik, tarjimonlik va xattotlik faoliyati

Xislat serqirra ijodkor. U badiiy ijod bilan birga ko‘pgina ma’naviy-ma’rifiy ishlarda faollik ko‘rsatdi, ba’zilarining boshida turdi. Shulardin biri uning noshirlik faoliyatidir.

Ma’lumki, mumtoz she’riyatimizning asosiy manbalari devon, tazkira va bayozlar bo‘lib hisoblanadi. Lekin bayoz XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek she’riyati uchun birlamchi manbaga aylandi. Ayniqsa, Toshkent adabiy muhitida bayozchilik ancha taraqqiy etdi. Ular goh bayoznavisning tab’i nazmi, goh talabalar ehtiyoji, gohida esa buyurtmachi-homiyning talablari asosida tuzilgan. Bunday majmualarga ehtiyoj oshib borgani uchun matbaachilik paydo bo‘lganidan keyin chop etilgan kitoblarning aksariyatini bayozlar tashkil qildi. Shoир Xislatning she’rlari ham mana shunday bayozlarda saqlanib qoldi. Ta’kidlash lozimki, avvalo, Xislatning o‘zi bayoznavis shoир edi⁹.

Komil Xorazmiy, Karimbek Kamiy, Mulla Bolta Niyoz Nadimi, Muhamad Yoqub devon, Muhammad Yusuf Chokar, Muhsiniy, Mirzo, Xodim kabi shoир-bayoznavislar o‘z ijodlarini, shuningdek, o‘tmish hamda zamondosh shoirlarning ijod namunalarini qo‘lyozma bayozlar orqali targ‘ib qilgan bo‘lsalar, shoир Xislat o‘zining go‘zal lirik she’rlarini ma’rifatga tashviq qiluvchi asarlarini o‘ziga zamondosh shoirlar ash’orini hamda fors-tojik va ozar klassik adabiyoti zabardast namoyandalarining yetuk asarlarini toshbosma usulida keng xalq ommasiga tashviq qilgan usta bayoznavis shoirlardan biridir. Xislatning XIX asrning II yarmi XX asr boshlarida ijod qilgan shoirlarning lirik she’rlaridan tartib berib tuzgan bayozlari o‘zbek adabiyoti tarixining eng boy va nodir namunasi hisoblanadi.

Xislat juda tashabbuskor va jasoratli shoир edi. U klassik va o‘ziga zamondosh shoirlardan bir qanchasining she’rlaridan eng yaxshilarini saralab olib bayozlar tuzdi. “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfai Xislat”, “Hadyai Xislat” bayozlari shular jumlasidandir. Bu haqda shoirning o‘zi

⁹ Qarang: Hamidova M. Qo‘lyozma bayozlar - adabiy manba. 99-106-b.

shunday deydi: “...mening adabiy xizmatlarim ichida bayoz chiqarganligim juda katta ishdir. Men “Tuhfai Xislat”, “Hadyai Xislat”, “Savg’oti Xislat”, “Armug‘oni Xislat” nomli to‘rt bayoz chiqarganman. Bu to‘rt bayozning ichida 86 ta o‘zbek shoirining 230 ta eng go‘zal, ajoyib she’rlari to‘plangan”¹⁰ Xislat bayozlari haqida shoir Kotib shunday degan edi:

*Har chamandin bir gul aylab intixob,
Jam qildi nusxani Xislat janob.*

Xislat birinchi to‘plami – bayozi “Hadyai Xislat”ni 1910 yilda Toshkentda G.Y.Yakovlev litografiyasida tartib berib chop ettirdi. Bayozdan Kamiy, Mavlono Vasliy Samarqandiy, Asiriy Xo‘jandiy, G‘urbatiy, Xislat kabi bir qancha shoirlarning g‘azal muxammas, muvashshah hamda o‘zaro bir-birlarining she’rlariga bitgan naziralari keng o‘rin olgan. Bayoz Xislatning masnaviy janrida yozilgan quyidagi muqaddimasi bilan boshlanadi:

*Aytay arzim eshititing ahli donish,
Ki o ‘tkuzdim bekor ko ‘b yoz ila qish,
Tafakkur birla ko ‘b andisha qildim,
O ‘zumg ‘a ushbu ishni pesha qildim.
Qo ‘lumg ‘a ul zamon oldim ki xoma,
Dedim qolsun, jahonda yodnom.
G ‘azal birla muxammaslarni yozdim,
Qo ‘lumda igna go ‘yo chohni qozdim.
Borin jam aylabon bas, ey nekuzot,
Ki qo ‘ydum “Hadyai Xislat” munga ot.*

Bu bayozning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unga asosan, Xislatga zamondosh shoirlarning she’rlari kiritilgan.

Xislat 1912 yilda o‘z davrining mashhur hofizi Mulla To‘ychi Toshmuhammayedovga bag‘ishlangan she’riy to‘plam – “Armug‘oni Xislat” bayozini chop ettiradi.

¹⁰ Mo‘minjon Muhammadjonovning shaxsiy arxivni, shoir Xislat haqidagi esdaliklaridan.

Bayozni kotib Sirojiddin maxdum Xandaqliqiy (shoir Shavkat) nozik va go‘zal xat bilan ko‘chiradi.

Bayozdan Firdavsiy, Navoiy, Lutfiy, Munis, Muqimiy, Sayidahmad Vasliy, Noqis, Miskin, Xislat, Shavkat, Zavqiy, Asiriy, Hoziq, Islom shoir kabi 30 dan ortiq shoirlarning “Savti dugoh”, “Dugohi Husayniy”, “Ushshoq”, “Chorgoh”, “Taronai bayot”, “Savti navo” maqomi kuyiga solib, To‘ychi Hofiz tomonidan qo‘sish qilib aytildigan g‘azal va muxammaslari o‘rin olgan, ya’ni hofiz repertuaridagi qo‘sishlar matni. XX asr boshlarida tuzilgan mashhur bayozlardan biri. Bayozning muhim xususiyati shundaki, har bir she’rni To‘ychi Hofiz qaysi maqomda aytgan bo‘lsa, shu maqomning nomi she’r ustiga yozib qo‘yilgan. Mazkur bayoz shoir Xislatning O‘rta Osiyoda ma’lum va mashhur bo‘lgan To‘ychi Hofiz bilan yaqin ijodiy aloqada bo‘lib turganligidan dalolat beradi.

Mulla To‘ychi hofiz tashabbusi bilan shoir Xislat tuzib, savti va maqomlari nomini yozib, tartib bilan tayyorlagan. Xislat To‘ychi Hofizning ashula qilib aytib yurgan she’rlarini kitob qilib bostirish niyatida ekanini aytadi:

Yig‘ib manga beringiz abyotlariningiz,

Kitob aylay solibon otlariningiz.

Unga javoban To‘ychi Hofiz:

Qulog‘img‘a yaxshi kelur bu so ‘zing,

Asig‘dir so ‘zing o ‘ylakim yulduzing.

“Sen ham jon (bosmaxonada bostirib chiqarish) xususida justijo‘lar ko‘rguzasen...va har naqadar oltin zarlarga sarf bo‘lg‘oy, mendin olg‘oysen va g‘azalning to‘pasiga Savtu maqomning nomini yozib tartib rishtasiga tergaysen”¹¹, – deydi.

Bayoz bosilib chiqqach katta muvaffaqiyat qozonadi. To‘plam Xislat bayozlari ichida eng muhimi va ahamiyatlisi bo‘lib, buni shoirning o‘zi ham ta’kidlab shunday deydi: “Mening to‘plamlarim ichida eng ajoyibi To‘ychi Hofizga bag‘ishlab to‘plangan “Armug‘oni Xislat” bayozidir. Bu bayozda 63

¹¹ M. Toshqin “Toshkent shoirlari...” tazkirasi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi. Qo‘lyozma. Inv.№ 271 – B. 74

shoirning 118 she’ri bor bo‘lib, bularning hammasi To‘ychi Hofiz tomonidan ashula qilinadi. Bu she’rlarning hammasi ustiga chorgoh kuyidami, ushshoq kuyidami – qaysi kuyda ashula qilinishi ham yozib qo‘yilgan. Bu 118 ta ashuldan 48 tasi mening o‘z she’rimdir”.

Tarixda juda ko‘p bayozlar tuzilgan va chop ettirilgan. Ammo mumtoz shoirlarning she’rlariga hofizlar tomonidan aytildigan ashulalarni hech kim to‘plab, qaysi usulda aytishini yozib chop ettirmagan edi. Bu xayrli ishni Xislat bajardi. Shoir bu kitobiga kirgan g‘azallarning yangi, original ekanligini alohida uqtirib o‘tadi: ...kamina bu javobi mushkini xitobdin xushnud bo‘lib bu bayozni tartib va tazyinig‘a ko‘shish qilib “Armug‘oni Xislat” oti birla atab va har g‘azalni savtu maqomu ohangining to‘fasiga yozib, elning ko‘ziga muhallo qilib, jilvagar qildim. Yana ma’lum bo‘lg‘ayki, bayoz necha martaba choplari bo‘ldi, ammo ushbu “Armug‘oni Xislat”da ul chop bo‘lmish bayozlardagi ko‘hna va eski eshitilg‘on g‘azallardin yo‘qdur va muning hamma g‘azallari eshitilmag‘on va ko‘rmag‘on g‘azallardir.

“Armug‘oni Xislat” bayozining To‘ychi hofizga bag‘ishlanganligining sabablari bor edi: birinchidan, u o‘z davrining mashhur xonanda san’atkorlaridan bo‘lsa, ikkinchidan, adabiyot-she’riyatni jon-dildan sevgan, hurmat qilgan, uchinchidan, mulla To‘ychi Toshmuhammedov “Armug‘oni Xislat” bayozining chop etilishi xarajatlarini zimmasiga olgan edi.

To‘ychi hofiz bilan shoir Xislat juda yaqin munosabatda bo‘lishgan. Shoir bayoz debochasida xalq bulbuli nomini olgan Hofizni ehtirom bilan tilga oladi. Uning shirinsuxanligi, xalq hurmatiga sazovor bo‘lganligi, fikrining teranligi, o‘ta kamtarinligi, ovozining yoqimliligi to‘g‘risida hayajonlanib so‘zlaydi:

Bu kun sizlarga arbobi farosat,

Qilay men To‘ychixondin hikoyat.

Nihoyatda o‘zi dildoru dilkash,

Muhayyo suhbatida necha mahvash...

Bu yanglig‘ bo‘lsa, ham yo‘qtur binosi,

Anga birdek jahon shohu gadosi

Aning-chun shuhrati olamni tutgan,

Demay olam falak toqidin o ‘tgan.

Bayozning 239-sahifasidan Mulla To‘ychi Toshmuhammedovning surati berilgan va bu suratning yuqori qismida Shavkat Iskandariyning forscha fardi, quyiroqda esa uning tarjimasi berilgan:

Bu surat Mulla To ‘ychi suratidur,

Tamom olamni tutgan shuhratidur.

Bayozning chop etilishi munosabati bilan Mirmuhsin Shermuhammedov tomonidan yozilgan “Tavsifi Xislat eshon” she’ri shoir ijodining zamondoshlari tomonidan qadrlanganini ko‘rsatadi:

Aylab tarahhum elg ‘a qildi nishon Xislat,

Shod ayladi borimiz ul “Armug‘oni Xislat”...

Toshkandda garchi ko ‘pdur shoiru she ‘rxonlar,

Onlarning barchasidin ham nuktadon Xislat.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Armug‘oni Xislat” o‘z davrida ilg‘or ziyoilarning aksariyatini diqqatini tortgan. Shuning uchun ko‘pgina ijodkorlar bayozga olqish she’rlar yozishgan, kitobning oxirida ta’rix she’rlari berilgan¹².

Shoir 1903-1904 yillarda bolalar uchun Ubayd Zokoniyning fors tilidagi “Go‘rba va mush” (“Mushuk va sichqon”) hikoyasini o‘zbek tiliga she’riy tarjima qilib o‘zi chop ettirdi. Xislat bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda katta mahorat ko‘rsatdi. Shoир asarning asliga birmuncha ijodiy yondashishga, tarjimaga qisman bo‘lsa ham o‘z davrining ruhini singdirishga, til va uslub jihatidan “Go‘rba va mush”ni mакtab yoshidagi bolalarga manzur etishga harakat qildi. Xislatning bu asari XX asr boshlarida bir necha marotaba nashr qilingan.

Shoir Xislat tarjimonlik, noshirlik ishlari bilan bir qatorda o‘zining she’r yozishini ham davom ettirdi.

¹²Mazkur bayozda Shavkat Iskandariy, Husaynxon Maxdum Andijoniy, Mulla Muhammad Yusuf Andijoniy, Mulla Shohislom Toshkandiy, Vasliy Samarqandiy, Mulla Asadulla Toshkandiy singari shoirlarning ham ta’rixlari berilgan.

Xislat 1912-1914 yillarda o‘z g‘azallarini saralab, boshqa shoirlarning she’rlari bilan birga “Tuhfai Xislat” va “Savg‘oti Xislat” bayozlarini ham chop ettirdi. Xislat tarjimonlik faoliyatini davom ettirib, qadimiy fors qahramonlik eposi “Dostoni Barzui sher”ni o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1911 yilda Toshkentda O.A.Porsev bosmaxonasida chop ettirdi. Xislat katta-katta epik asarlar bilan bir qatorda g‘azal va muxammaslarni ham o‘zbek tiliga tarjima qildi. Masalan, u o‘z do‘sti Shavkatning “Savti Ho‘qandcha xonish muxammasi Shavkat Iskandariy bar g‘azali Ahmad” nomli she’rini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Shavkatda:

Ey nigorim, in chi savdo kardai?

Mehri xudro dar delam jo kardai.

Xonai delro musaffo kardai,

To jamoli xeshro paydo kardai.

Oshiqonro mastu shaydo kardai.

Xislatda:

Ey nigorim, bu na savdo aylading,

Mehri ishqing jon aro jo aylading,

Xonai dilni musaffo aylading,

O‘z jamolingni chu paydo aylading,

Ishq elini mastu shaydo aylading.

Xislat bunday asarlarni tarjima qilayotganda she’rning uslubi, vazni, mazmun va g‘oyasini to‘liq saqlashga harakat qilgan.

Xislat juda nafis xattot ham edi. 1906-1914 yillarda chiqqan bir necha bayozlarga kotiblik ham qilgan. 1911 yilda nashr etilgan “Bayozi yangi” shular jumlasidandir. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan ma’rifatparvar Umar Boqiy buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarini nasrga aylantirib, ommabop usulda qayta ishlab chiqadi. Umar Boqiy xalqning Navoiy ijodiga bo‘lgan katta qiziqishini nazarda tutib shunday xayrli ishni amalga oshirgan bo‘lsa, noshir va ma’rifatparvar Xislat o‘z navbatida Umar Boqiyning bu asarlarini nashrga

tayyorlab chop ettirib, xalqni undan bahramand etishda faollik ko‘rsatadi. Bu asar 1906 yilda Toshkentda Porsev bosmaxonasida katta nusxada nashr ettiriladi. Xislatning do‘sti Shavkat Iskandariy asarning syujetidan kelib chiqib chizgan 13 ta miniatyurasi ham kitob sahifalaridan o‘rin olgan.

Xislat Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini ham xuddi shu tarzda nashrga tayyorlab chop ettirdi. Bu asarga ham shoir va musavvir Shavkat Iskandariy uning g‘oyaviy mazmunidan kelib chiqib 11 ta ajoyib miniatyura chizgan.

Xislat o‘zining “Armug‘oni Xislat” bayozida ham Alisher Navoiyning asarlarini katta qiyinchilik bilan chop ettirganligi haqida yozadi:

Yana qissai “Farhodu Shirin”,

Hammaga ma’lum shuhratidur chin.

Aning orqasidan bas, “Layli va Majnun”,

Ki qildim qissani chop, yutub xun.

O‘sha davrda Navoiy asarlarini xalqqa yetkazish, xalqni bahramand qilish katta ahamiyatga ega edi. Bularning o‘zi ham Xislatninig ulug‘ ustozga bo‘lgan cheksiz hurmatning bir ko‘rinishi edi.

Xislat va uning zamondoshlari ijodi haqida ma’lumot beruvchi eng katta manbalaridan yana biri Toshkent Davlat Pedagogika universitetining «O‘zbek adabiyoti» kafedrasи fondida saqlanadi. 56 raqamli bu qalamiy bayoz adabiyotshunos A.Jalolovning fikriga qaraganda, 1911 yil shoir Xislat tomonidan tartib berilgan¹³.

Xislatning shoir sifatida shakllanishida o‘zbek adabiyotining zabardast siymosi Muqimiyning sezilarli ta’siri bo‘lgan.

“Muqimiy uchun Toshkentning ko‘p eshiklari ochiq, mehmonxonalar to‘ri muntazir edi, - deb yozadi Sobir Abdulla “Mavlono Muqimiy” asarida. – Yangi-yangi do‘stlar soni ortib bormoqda, o‘z g‘azallari bilan Toshkent shinavandalariga tanilib kelayotgan yosh shoirlar Mulla Qo‘snoq – Miskin,

¹³ Qarang: Jalolov A. O‘zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti. 18-b.

Haybatulloxo‘ja – Xislatlar doim Muqimiylar yonida edilar”¹⁴. Xislat hayoti haqidagi ma’lumotlar o‘z davri tazkiralari bilan bir qatorda zamondosh shoirlar ijodidagi she’riy parchalarda ham aks etgan. Xususan, pskentlik shoir Dilafgor Xislatga yo‘llagan she’riy maktubida shoirdan Toshkentdag‘i bir qator taniqli shoir, adib, xattotu noshir zamondoshlari – yoru birodarlariga salom yetkazishini so‘raydi:

*Xislato, majmu’i yoru oshnolarni so‘rang,
Ko ‘z tanish xurd u kalon aqli salolarni so‘rang*¹⁵.

Xislat shoir sifatida tanilganidan so‘ng Toshxo‘ja Asiriylar, Kamiylar, Muhayyir, Oraziy, Shavkat Iskandariy, Miskin kabi shoirlar bilan yaqin ijodiy aloqada bo‘ldi. Ular bilan umrbod do‘st tutindi. Xislat bu shoirlar bilan juda ko‘p adabiy majlislarda, qizg‘in mushoira va suhbatlarda bo‘ldi. Qo‘qonga, Xo‘jandga, Andijonga shoir do‘stlari oldiga tez-tez borib turdi.

Xislat she’riyat ahllari bilan ko‘risha olmagan kezlarida she’riy maktublar yozib, ularning ahvollarini so‘ragan, ijodda shoir do‘stlariga muvaffaqiyatlar tilagan, o‘z o‘rnida ular ham Xislatga she’riy maktublar yozib turishgan. Xo‘jandlik Toshxo‘ja Asiriyning Xislatga yozgan 32 misrali she’riy maktubi fikrimizning dalilidir.

*Xislato, majmu’i yoru oshnolarni so‘rang,
Barchag‘a bizdan duo ayting og‘olarni so‘rang.
Bizdan aylang zumrai ahboba tavzi’i salom,
Loyiqi vasfi sazovori sanolarni so‘rang.*

Bundan tashqari, zamondosh shoirlar Xoib(bir g‘azal, bir muxammas), Zululiy Namangoniy (g‘azal), Pirimqori Andijoniy (g‘azal) Xislatga she’riy maktublar yo‘llaydiki, bu uning o‘sha davr ijodkorlari bilan yaqindan aloqada bo‘lganligining yaqqol dalilidir¹⁶.

Xislat ijodining yuksalishida katta ta’sir ko‘rsatgan manbalardan biri Sharq mumtoz she’riyati va shoir bilan bir davrda yashab ijod etgan adiblar edi.

¹⁴ Abdulla S. Asarlar. 3-tom, – B. 416.

¹⁵ Xislat. Tarannum. – T.: “MERIUS”, 2009. –B. 152.

¹⁶ Xislat. Tarannum. – T.: “MERIUS”, 2009. –B. 151-159.

Yosh shoir mumtoz adiblarni o‘qish bilan birga ularning ba’zilariga ajoyib o‘xshatma va naziralar yozdi, muxammaslar bog‘ladi. Ayniqsa, zamondoshlari Muqimiy, Zavqiy, Muhayyir, Furqat ijodi bilan qiziqdi va yaqindan tanishdi. Muqimiy, Furqat ijodiga hurmat sifatida o‘zi tuzgan to‘rt bayozga ularning asarlaridan ko‘plab namunalar kiritdi.

Xislat Muqimiydan she’riyatning qonun-qoidalarini o‘rganadi. Yosh shoir ustozning she’rlariga ba’i o‘rinda nazira, ba’zi o‘rinda o‘xshatma yozadi, ba’zi o‘rinda muxammaslar bog‘ladi.

Biror g‘azalga muxammas bog‘lagan shoir o‘sha she’rda ifodalangan fikrni kengaytirishi va to‘ldirishi kerak. Yana shu bilan birga o‘sha g‘azal muallifining uslubini (mazmun, shakl) saqlashi kerak.

Muxammasning oldingi uch misrasi g‘azalning bayti bilan chambarchas bog‘lanishi, she’rda ikkala muallifning uslubi farq qilmasligi kerak. Xislat she’riyatdagi bu majburiyat va qonuniyatni juda yaxshi bilgan, shuning uchun ham u mumtoz shoirlarning g‘azallariga muxammaslar bog‘lar ekan, avval ularning asarlarini yaxshilab mutolaa qilgan, uslubini o‘rgangan. Xislatning Muqimiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari shu darajada hamohangki, chetdan qaraganda ularni bir-biridan farqlash qiyin.

Shoir ustoz g‘azallariga muxammas bog‘lashda g‘azalning tashqi tuzilishiga (shakl, qofiya) emas, balki she’rning ruhiga, g‘oyasiga, unda tasvirlangan obrazning ma’naviy mazmuniga katta e’tibor berdi.

*Parioso ko ‘rinmay o ‘zni pinhon aylading ketding,
Mani devonadek besabru somon aylading ketding,
Misoli andalib hajringda nolon aylading ketding,
Ko ‘ngulni g‘uncha yanglig‘ qon aylading ketding,
Xaloyiq ichra mayusu parishon aylading ketding.*

Bu Muqimiy g‘azallaridan biriga bog‘langan muxammasning birinchi bandi. E’tibor qilinsa, mazkur band ikki shoir qalamiga mansubligi umuman sezilmaydi.

Bu kabi holni Xislatning Haziniy, Huvaydo, Furqat, Shavkat Iskandariy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Adabiyot tarixida odatda biror g‘azalga bir necha shoirlarning muxammas bog‘lashi kuzatiladi. Aynan bir g‘azalning o‘ziga bir ijodkor tomonidan ikki muxammas bog‘lash she’riyatda kamdan kam uchraydigan hodisa. Xislatning Furqat qalamiga mansub

Huru pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik,

Jannatni gullaridan gulzoringiz chiroylik

misralari bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan muxammasi ikki manbada ikki xil shaklda keltirilgan. Bu o‘z navbatida Xislatning har bir nashrga ijodiy yondashganini ko‘rsatadi¹⁷.

Hatto Xislatning hajviy she’rlarida ham ustoz Muqimiy ijodining ta’sir kuchini ko‘rshimiz mumkin.

Masalan, Xislatning “Najmuddin” nomli satirasidagi:

Masjidni aylabon jo,

Yotg‘usi sindirub po.

Qilg‘usi fitna ig ‘vo,

Nopoku, chirku murdor, –

kabi to‘rtliklarini o‘qir ekanmiz, beixtiyor Muqimiyning mashhur “Sayohatnoma”laridagi ushbu misralar yodimizga keladi:

Mag‘rur, xasisu beshu kam,

Har gapda yuz ichgay qasam,

Tagjoy olur moxovdan ham,

Hoji o‘zi murdor ekan

Xislat ko‘plab ijodkorlar singari o‘z ijodini dastlab ishqiy she’rlar yozish bilan boshladi. Keyinchalik zamonasining yetakchi mavzusi bo‘lgan ma’rifatparvarlik targ‘iboti va boshqa ijtimoiy mavzularda mahorat bilan qalam tebratdi. Professor Begali Qosimov buni quyidagicha talqin qiladi: “...asosan an’anaviy ishqiy she’riyat bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, davr hodisalari ta’siri

¹⁷ Xislat. Tarannum. – T.: “MERIUS”, 2009. –B. 76-79.

tufayli hayotdagi o‘zgarishlarga, xususan, yangilanayotgan adabiyotga rag‘bat bildirgan shoirlardan”¹⁸.

Maorif sohasini yuksaltirish, ma’rifat orqali xalqni zalolatdan qutqarish davr talabi, hayotiy ehtiyoj edi. Matbuot bilan yaqindan tanish bo‘lgan shoir ma’rifatparvarlik mavzuida o‘nlab she’rlar yaratdi. Bu kabi she’rlar Vatanni ozod, millatni mutaraqqiy xalqlar bilan barobar ko‘rmoq orzusining o‘ziga xos poetik ifodasidir.

Akademik N.Karimov ta’kidlaganidek: “boy bilimga ega bo‘lgan, g‘azallari o‘zbek xalqining og‘zidan tushmagan, o‘z asarlari va tarjimalari bilan yosh avlodni sharqona axloq va odob ruhida tarbiyalashga intilgan shoir hatto el-yurt o‘rtasida shuhrat qozongan yillarida ham och-yalong‘och qolib, bala-chaqasini boqish uchun duradgorlik ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldi...Holbuki, u shu yillarda ham jadid adabiyotining vakili sifatida yoshlarni o‘qishga, zamon bilan baravar odim otishga da’vat etuvchi she’rlari bilan xalqi va vataniga astoydil xizmat qilayotgan shoir edi:

*O‘qing, farzandi zebosiz, zamon sizlarga xo‘b boqdi,
Bo‘ling alloma odam siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.*

*O‘tubdur keksalar umri base kulfat, nadomatda
Oling ibrat bu ishdan siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.*

*Ochildi qanchalar dorulfununu texnikum, maktab,
Qiling jahdu jadllar siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.*

*Zamon Aflatuni tengsiz muallimlar bo‘lib rahbar,
Qo‘ying ixlos alarga siz, zamon sizlarga xo‘b boqdi.*

Har qanday xalq va mamlakatning kelajagi yoshlar qo‘lida ekanini yaxshi bilgan shoir ularning ma’naviy barkamol, zamonaviy ilm-fan va

¹⁸ Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Manaviyat, 2002. – B. 302.

texnikani mukammal egallagan kishilar bo‘lib ulg‘ayishlarini orzu qilgan edi”¹⁹.

Shoir nazarida, ilm – barcha mushkulotlarning kaliti. Ilmsizlik millatni oxir-oqibat xarob qiladi. El-yurt boshiga har qanday azob, har qanday xaroblik kelsa, bu – jaholat oqibatidir. Shoirni millatdoshlarining ilmsizligi, jaholat girdobida qolgani va eng achinarlisi, bundan or etmasligi qattiq iztirobga soladi.

Buning natijasi o‘laroq, Xislat ijodida ma’rifatparvarlik ruhidagi bir qator she’rlar yuzaga keldi.

¹⁹ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -T. O‘zbekiston. 2008. –B.73

II BOB. SHOIR LIRIKASINING MAVZU KO'LAMI

2.1. Shoir lirkasida ishq, hajv, ilm-ma'rifat mavzularining badiiy talqini

Ishqiy lirika. So'z san'ati vujudga kelgandan buyon har bir ijodkor ishq mavzusiga qayta-qayta murojaat etgan va u yoki bu darajada ishqni o'ziga xos poetik talqin etishga muvaffaq bo'lgan. Ko'hna mavzu o'zgacha mezonlar, ohorli tashbehlar vositasida yangicha ifodalanishiga erishilgan. Zero, "ishqu oshiq – badiiy so'z san'atining doimiy yo'ldoshi...Ishqni kuylamagan shoirni va ishq dardi aralashmagan she'rni topish mutlaqo mumkin emas"²⁰ligini shu bilan izohlash mumkin.

Xislat adabiy merosining ham salmoqli qismini ishqiy lirika tashkil etgan bo'lib, bu mavzu deyarli barcha janrdagi she'rlarida teran mazmun va go'zal poetik shakl mutanosibligida badiiy talqin etilgan. Ularda shoir visol lazzati, hijron iztiroblari, jon va jonon mojarosiga ko'p bora murojaat etadi. Xislat bu mavzuda she'r yozishni ijodining ilk bosqichida boshlagan bo'lib, uning ishqiy lirkasi, asosan, g'azal janrida yaratilgan. Negaki, g'azal istiloh sifatida arabcha ayolni madh etish, unga oshiqona munosabatda bo'lish ma'nosini anglatadi.

Sharq adabiyotida ishq-muhabbat mavzui har qanday shoir ijodiy kamolotini belgilovchi mezondir. Darhaqiqat, Xislat lirk shoir sifatida pok insoniy tuyg'u – ishq-muhabbatni zo'r ehtiros va zavq-shavq bilan kuyladi. Ishqni o'ziga xos uslubda madh etib, qalb kechinmalarini she'rga soldi. Uning g'azallari ishq-muhabbat talqinidagi an'anani davom ettirish barobarida obrazlar tasvirida, badiiy san'atlarni qo'llashda o'ziga xoslikka intilganini ko'rsatadi. Shoir zamon va makon tanlamaydigan muqaddas tuyg'u – muhabbat tasviri uchun takrorlanmas ifoda usullari-yu beqiyos badiiy tashbehlar qo'llaydi, tasvirlamoqchi bo'lgan kechinmalariga mos original qofiya va radiflar izlaydi. Bu esa, Miskinning o'z davri she'riyatida munosib mavqega erishmog'ini ta'minladi:

²⁰ Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro nashriyoti, 1996. – B. 142.

Hajringda bas, o 'ldurma andishai fardo qil,

Kel emdi manga jono vaslingni muhayyo qil.

O‘zbek adabiyotida “Qil” radifida ko‘plab g‘azallar ijod etilgan.

Jumladan, bu radifda Amiriyy, Uvaysiy, Fazliy, Ado (Sultonxonto‘ra Ahroriy), Hotif, Nola, Xijlat, Feruz, Muqimiy, Furqat, Hamza, Haziniy, Kamiy, Sidqiy Xondayliqiy singari shoirlar g‘azal bitgani ma’lum. Ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oya va kechinmalari tasviri uchun bu radifni tanlar ekan, Xislat salaflari va zamondoshlari bilan ijodiy musobaqaga kirishadi. Shu bilan birga, qalb tubida saqlanayotgan tuyg‘ularini, muhabbat iztiroblarini o‘ziga xos tarzda ifodalashga erishadi:

Mastona bosib bir-bir gulshanda xirom aylab,

Tovusni etib hayron ham kabkni shaydo qil.

Shuni ta’kidlash kerakki, an’anaviy ishqiy she’riyatda bo‘lgani kabi Xislat she’riyatida ham asosiy obrazlar oshiqa, ma’shuqa va raqibdir. Shoир o‘zining ishqiy lirkasida o‘z his-tuyg‘ularini, ishqqa munosabatini oshiqa va ma’shuqa obrazlari orqali ifodalaydi. U ma’shuqani tengsiz go‘zal sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham unga nisbatan “mahliqo”, “mahvash”, “hur”, “pari”, “parivash”, “nozanin”, “gul”, “jonon” kabi ko‘plab an’anaviy sifatlar qo‘llanadi. Oshiqning nochor holi, visoldan mudom umidvorligi shoир qo‘llagan “parvona”, “gado”, “devona”, “bulbul” obrazlari vositasida yorqin aks etadi. Ishqdan maqsad – visol. Oshiq uchun mahbubasidan go‘zalroq xilqat yo‘q. Uning vaslidan bo‘lak hech narsa uni qiziqtirmaydi:

Husn bog‘ida guli ra’nolig ‘ingdin o’rgulay,

Savr yanglig‘ qomati zebolig ‘ingdin o’rgulay.

Oshiqning birdan bir umidi sevgilisining visoliga erishmoq.

Raqib – ishqiy lirkada oshiq va ma’shuqa bilan yonma-yon tasvirlanuvchi obraz. Miskin lirkasida bu “uchinchchi odam” ko‘pincha oshiq g‘amu anduhining sababkori. Ma’shuqaning e’tibori ko‘proq unda. Bu esa oshiqning bag‘rini o‘rtaydi:

*Raqiblar oldida do ‘stlig‘ uchun man imtihon aylab,
Chaqirsam kelmayin ul kun izolar qildingu ketding.*

Ma’shuqaning “nooshno”ligi, “bevafo”ligi oshiqning “g‘am boridin bo‘ldi mani qaddim duto qandoq qilay”, “solding kamandi ishqing man zori mubtagalog‘a” deya nola qilishiga sabab bo‘lgan. Lekin oshiq o‘z sevgilisining barcha jabru sitamlariga sabrli. Yor visoliga erishmoq uchun bu yo‘ldagi har qanday azobga, hatto jondan kechmoqqa ham rozi:

*Xoh o ‘ldurug‘a amr et, xoh kuydururg‘a yorim,
Men senga bo ‘ldium oshiq rozi bo ‘lib qazog‘a.*

“o‘rgulay”, “qalaysizlar”, “aylansun”, “ikkimiz” Xislat ishqni zavq-shavq bilan tarannum qilar ekan, uning kamolotidagi asosiy vosita ma’shuqa, yor ekanligini alohida ta’kidlaydi:

*Man agar ko ‘rsam sani har qayda gar ag ‘yor ila,
O ‘rtanib rashk o ‘tig‘a ul damda so ‘zon o ‘lmisham.*

Umuman, XX asr boshlaridagi bayozlarda Xislat qoldirgan ishqiy she’rlar uning nazmdagi salohiyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Hajv mavzusi. Xislat hayoti va ijodiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan Mo‘minjon – Toshqin o‘zining tazkirasida shoirning biroz hajviy she’rlari borligini xususida alohida to‘xtalib o‘tadi. Davr ijodkorlarining aksariyatida hajv, mutoyiba mazmunidagi ko‘plab she’rlar uchraydi. Pashshalar, ot, amaldorlarning kirdikorlarini fosh qilish mavzuidagi turkum she’rlar shular jumlasidandir. Bizningcha, o‘z davrining adabiy an’analarini munosib davom ettirgan Xislat bu mavzuga ham befarq bo‘lmagan va hajviy mavzuda she’rlar yozishi tabiiy edi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, milliy uyg‘onish davri adabiyotida bir turkum hajviy she’rlar amaldorlarning kirdikorlarini fosh etish, ularning qilmishlari ustidan kulish mavzusida bo‘lib, bu mavzudagi she’rlar Xislat ijodida ham uchraydi. Ulardan shoirning “Mahalla bezor” she’ri ayniqsa diqqatga sazovordir. Xislat tahsil olgan “Ko‘kaldosh” madrasasi mudarrisiga

qayinota bo‘lgan mahalla ellikboshisi Najmiddinxo‘ja tabiat va faoliyatidagi yaramas odatlarni ustalik bilan fosh etadi:

Najmaddin oti – Xo ‘ja,

Istaydi noni parcha.

Yegani muftu o ‘lja,

El ichra bo ‘ldi beor.

Masjidni aylabon jo,

Yotqusi sindirib po.

Qilg ‘usi fitna, g ‘avg ‘o,

Nopoku chirku murdor.

Uning tamagirligi shunchalikki, biror joydan ovqat hidi chiqsa, u yerga, albatta, bir marta bosh suqadi. Uning bu qilig‘idan bezor bo‘lgan mahalla ahli unga noiloj bir og‘iz “keling” degan so‘zni aytadi.

Bo ‘lsa piyoz dog ‘i osh,

Bo ‘lg ‘oy anga borib bosh.

Hayron qolib qari-yosh,

Aytur “Keling”ni nochor.

Umrin tilar xazonin,

Olmaydi tangri jonin.

Qaynatmoqqa qozonin,

Bo ‘ldi mahalla bezor.

Bu turkumda yaratilgan yana bir she’r “Kafshim” radifli g‘azal bo‘lib, davr adabiyotida ayni shu mavzu va radifdagi bir necha she’rni uchratamiz.

Erdi ayog ‘larimg ‘a ko ‘b tangu tor kafshim,

Siqtiyu qildi oxir yurmoqqa zor kafshim...

Yo ‘l uzra yurganimda ilkimda ro ‘ymolim,

Artar edim damodam bo ‘lsa g ‘ubor kafshim...

*Dastaklari bosildi, bir yong'a bo'ldi qiyshiq,
Katta-kichik bu holda ko'rsa kulor kafshim.*

G'azal to'qqiz baytdan iborat bo'lib, mazkur g'azalga bir qator shoirlar, jumladan, shoirning do'sti Shavkat Iskandariy to'qqiz bandli muxammas bog'lagan. Aytish mumkinki, muxammas g'azalda ilgari surilgan mavzu va g'oyani munosib davom ettirgan. Hatto bir shoir qalamiga mansub yaxlitlik kasb etgan:

*Har damda ming balog'a bo'lg'on duchor kafshim,
Yuz joyidin yamalg'on choruqvor kafshim,
Kiymoqg'a tavba qildim emdi dubor kafshim,
Erди ayog'larimg'a ko'b tangu tor kafshim,
Siqtiju qildi oxir yurmoqqa zor kafshim...*

*Yog'qonda to'lg'oy erdi yomg'ur suyiga jiq-jiq,
Tashlar edi o'zini ko'runsa qayda balchiq,
Har dam ushbu sababdin ko'nglum bo'lur edi ziq,
Dastaklari bosildi, bir yong'a bo'ldi qiyshiq,
Katta-kichik bu holda ko'rsa kulor kafshim.*

*Kafshimi ko'rsa har kim, hargiz so'rashmas erdi,
Ham do'stlar tag'oful aylab, qarashmas erdi.
Har o'zga kafshlardek izzat talashmas erdi,
Ko'b kafsh ichida qolsa, aslo adashmas erdi,
Kiymay agarchi qo'ysam, ming yil turor kafshim...*

Xislat hassos lirik shoir bo'lish bilan birga yaxshigina hajvgo'y shoir ham edi. Uning bu mavzudagi she'rlari 1922 yildan boshlab "Mushtum" jurnalida "Quyon" va "Pashmak" imzolari bilan bositgan.

Ilm-ma'rifat mavzusi. XX asr tongida mustamlaka Turkistonda milliy ozodlik shiori ostida jadidchilik harakati paydo bo'ldi va jadal sur'atlar bilan

rivojlandi. Bu harakatning asosiy g‘oyasi bo‘lgan ma’rifatparvarlik va milliy ozodlik adabiyotning bosh mavzusiga aylandi. Jadidchilik ham shaklan, ham mohiyatan butunlay yangi adabiyotni shakllantirdi. Turkiston ma’rifatparvar ziyolilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHo‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Siddiqiy-Ajziy, Hamza, Kamiy, Miskin kabi ijodkorlar ilmsizlik, ijtimoiy qaramlik, ma’naviy-ma’rifiy qoloqlik illatlaridan qutulish va ma’rifatga erishish g‘oyalarini o‘ziga xos badiiy talqin etdilar.

Xislat ko‘plab ijodkorlar singari o‘z ijodini dastlab ishqiy she’lar yozish bilan boshladi. Keyinchalik zamonasining yetakchi mavzusi bo‘lgan ma’rifatparvarlik targ‘iboti va boshqa ijtimoiy mavzularda mahorat bilan qalam tebratdi. Professor Begali Qosimov buni quydagicha talqin qiladi: “...asosan an’anaviy ishqiy she’riyat bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, davr hodisalari ta’siri tufayli hayotdagi o‘zgarishlarga, xususan, yangilanayotgan adabiyotga rag‘bat bildirgan shoirlardan”²¹.

Maorif sohasini yuksaltirish, ma’rifat orqali xalqni zalolatdan qutqarish davr talabi, hayotiy ehtiyoj edi. Matbuot bilan yaqindan tanish bo‘lgan shoir ma’rifatparvarlik mavzuida o‘nlab she’rlar yaratdi. Bu kabi she’rlar Vatanni ozod, millatni mutaraqqiy xalqlar bilan baqamti ko‘rmoq orzusining o‘ziga xos poetik ifodasidir.

Akademik N.Karimov ta’kidlaganidek: “boy bilimga ega bo‘lgan, g‘azallari o‘zbek xalqining og‘zidan tushmagan, o‘z asarlari va tarjimalari bilan yosh avlodni sharqona axloq va odob ruhida tarbiyalashga intilgan shoir hatto el-yurt o‘rtasida shuhrat qozongan yillarida hamoch-yalong‘och qolib, bola-chaqasini boqish uchun duradgorlik ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldi...Holbuki, u shu yillarda ham jadid adabiyotining vakili sifatida yoshlarni o‘qishga, zamon bilan baravar odim otishga da’vat etuvchi she’rlari bilan xalqi va vataniga astoydil xizmat qilayotgan shoir edi:

O‘qing, farzandi zebosiz, zamon sizlarga xo‘b boqdi,

²¹ Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: Manaviyat, 2002. – B. 302.

Bo 'ling alloma odam siz, zamon sizlarga xo 'b boqdi.

*O 'tubdur keksalar umri base kulfat, nadomatda
Oling ibrat bu ishdan siz, zamon sizlarga xo 'b boqdi.*

*Ochildi qanchalar dorulfununu texnikum, maktab,
Qiling jahdu jadllar siz, zamon sizlarga xo 'b boqdi.*

*Zamon Aflatuni tengsiz muallimlar bo 'lib rahbar,
Qo 'ying ixlos alarga siz, zamon sizlarga xo 'b boqdi.*

Har qanday xalq va mamlakatning kelajagi yoshlar qo'lida ekanini yaxshi bilgan shoir ularning ma'naviy barkamol, zamonaviy ilm-fan va texnikani mukammal egallagan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilgan edi"²².

Shoir nazarida, ilm – barcha mushkulotlarning kaliti. Ilmsizlik millatni oxir-oqibat xarob qiladi. El-yurt boshiga har qanday azob, har qanday xaroblik kelsa, bu – jaholat oqibatidir. Shoirni millatdoshlarining ilmsizligi, jaholat girdobida qolgani va eng achinarlisi, bundan or etmasligi qattiq iztirobga soladi.

Buning natijasi o'laroq, Xislat ijodida ma'rifatparvarlik ruhidagi bir qator she'rlar yuzaga keldi.

²² Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -T. O'zbekiston. 2008. -B.73

2.2. Xislat ijodida davr voqealarining aks etishi

Xislat lirik va ma'rifatparvar shoir bo'lish bilan birga, o'z davri voqeliklariga befarq bo'limgan, davr adabiy muhiti va ijtimoiy hayotni muntazam kuzatib borgan hamda ularga o'z vaqtida munosabat bildira olgan zukko ijodkor. Shu o'rinda fikrimizning isboti sifatida Xislatning bir necha she'rlari xususida to'xtalamiz.

1914 yil 4-apreldan o'sha davrning madaniy hayotidagi mashhur voqealaridan biri "Sadoyi Turkiston" gazetasi chiqa boshlaydi. Noshiri va muharriri mashhur advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev bo'lgan. U o'z davrining ilg'or siyoshi, huquqiy va falsafiy ilmlarni teran egallagan, dunyoning oqu qorasini xo'p anglagan olim va ma'rifatparvar, yetuk ziyoli insondir. Muharrir va noshir sifatida gazetaning "Maromnoma"sida quyidagilarni alam bilan yozadi: "Biz turkistonliklar o'tgan hakim va olimlarimizning birini sohirlikka, ikkinchisini kofirlilikka, tag'in bilmam nalarga isnod berub ismlarini avlodimizdan unutdirmakdamiz..."

Bundan ma'lum bo'ladiki, biz Turkistonliklar hozirda na zamonga qarab, harakat qilurmiz, na din va shariatimizga bo'ysunurmiz va na tariximizdan ibrat olurmiz. Bizim shul qadar g'aflat jaholatimizni, ko'ra turib, yanadan sabr va tahammul ila sukut etmak muqaddas Vatanimiz va mehribon onamiz bo'lgan Turkistonga ko'p og'ir keldi..."

"Sadoyi Turkiston"ning muharrirlaridan biri, otashin fikrli shoir Abdulla Avloniy gazetani ham uning o'quvchilarini ham birinchi sonda shunday deb qutlagan edi:

*Maslagi betaraf taraqqiy yo'li,
Qalamin ilm uchun tutibdir qo'li.
Sarf etar qancha bo'lsa bor puli,
Advokatlar mudiri mas'uli.
Chiqti boshlab "Sadoyi Turkiston"
O'qungiz shavq birla, ey do'ston!*

Garchi bu o‘rinda Abdulla Avloniy gazetaning yo‘lini “betaraf” deb belgilayotgan bo‘lsa ham, aslida u millat sha’ni va manfaati uchun kurashar bunday kurashda esa betaraflik nisbiy bir tarzdagina bo‘lishi mumkin. Ehtimol bu betaraflik chor siyosatiga qarshi kurashmaslikni nazarda tutar, unda bu to‘g‘ri va u harbiy nazorat tazyiqiga uchramaslik uchungina qilingandir. Gazeta asos e’tibori bilan milliy uyg‘onish g‘oyasini ilgari surdi va natijada tez orada o‘z atrofiga ilg‘or fikrlovchi ko‘plab ziyolilarni to‘pladi. Turli maqola va she’rlar bilan gazetani qutladilar. Uning faoliyatiga katta umid bilan qaradilar. Shunday ma’rifatparvarlardan biri Haybatullaxo‘ja Xislat edi. Shu o‘rinda qutlov she’rning to‘liq matni bilan tanishsak.

Sadoyi Turkiston

*Dilimning orzuyu muddaosi,
Edi doim bu “Turkiston sadosi”.*

*Hazoron shukrkim, chiqdi quyoshdek,
Jahonni aylabon ravshan ziyosi.*

*Muning nashriga qilsam kamlik etgay,
Nisori molimu jonim fidosi.*

*Yozilg‘on so‘zlari har qaysi durdin,
Ziyodlik aylagay duru bahosi...*

*Olibon jonu dil birla o‘qunglar,
Bu Turkiston faqiru ag‘niyosi.*

*Rivojg‘a qilinglar yordam endi,
Bu kun, ey jumla insonlar sarosi.*

Jaholat dardini beshak bilanglar,

Davosi bu, davosi bu, davosi!

*Karam aylab vale isloh etinglar,
Agar Xislat so ‘zinr bo ‘lsa xatosi.*

*Xirad piri, miyoni millat ila,
Dedi: ta’rix “Turkiston sadosi”.*

Bu she’r xususida Xislat haqidagi xotira muallifi Mo‘minjon Toshqin shunday yozadi: “Shoir Xislat revolyusiyadan burungi matbuotda ham qatnashib, hammadan orqada qolg‘on va nodonlik dengiziga g‘o‘ta urgan bizning o‘zbek xalqini ilmu maorif, madaniyatga targ‘ib qilib she’rlar yozar edi. Shu jumladan, mazkur she’r Toshkentda ikki yilgacha davom etgan “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914 nchi yil 21 aprel 6 nchi sonida bosilib chiqqan tarixiy bir she’r...” bo‘lib, unda Xislatning “Sadoyi Turkiston” gazetasining nashr etilishiga munosabati o‘z ifodasini topgandir. E’tiborlisi shundaki, Xislat iste’dodining uch qirrasi namoyon bo‘lgan. Avvalambor, bu she’r Turkiston zaminida milliy uyg‘onish harkati eng kuchaygan bir davrda yaratilgan bo‘lib, Xislatning ham bu harakatdan chetda turmaganligini bildirsa, ikkichidan, Xislatning o‘sha yillardayoq milliy adabiyotimizning nozik janri bo‘lmish g‘azal bitishda yetuk mahorat sohibi bo‘lganini ko‘rsatadi. Va, nihoyat, o‘sha davrlardayoq Xislatning ta’rix yaratish san’atidan yaxshigina xabardor bo‘lganini namoyon qiladi.

Haqiqatan ham, Xislat bu she’rda chuqur ma’noli go‘zal bir ta’rix yaratgan. G‘azalning so‘nggi bayti ta’rixni yechishga asos bo‘ladi:

*Xirad piri, miyoni millat ila,
Dedi: ta’rix “Turkiston sadosi”.*

Bu yerda “Turkiston sadosi” jumlesi ta’rix moddasi (jumal) bo‘lib, abjad hisobi bo‘yicha miqdori quyidagicha belgilanadi: – تۈركىستان صىداسى “te”-400, “vov”-6, “re”-200, “kof”-20, “sin”-60, “te”-400, “alif”-1, “nun”-50, “sod”-90, “dol”4, “alif”-1, “sin”-60, “yo”-10 ga teng. Bu sonlarning umumiyligi 1302

dan iborat. Hijriy yil hisobidagi bu sanani milodiyga aylantirsak, 1884 yilga to‘g‘ri keladi. Bu esa, “Sadoyi Turkiston” gazetasining nashr etila boshlangan yili emas. Bunga oydinlik kiritish uchun birinchi misraga yuzlanamiz. Xirad piri “Turkiston sadosi”dan “miyoni millat” (millatning o‘rtasi) bilan ta’rix chiqadi, demoqda. Bu ishoraga binoan “millat” so‘zining miyoni(ya’ni o‘rtasi) “lom”(ﷺ) harfining qiymati 30 ni yuqoridagi yig‘indi – 1302 ga qo‘shsak, 1332 sanasi kelib chiqadi. Bu esa milodiy yil hisobi bo‘yicha, “Sadoyi Turkiston” gazetasi nashr etila boshlangan 1914 yilga to‘g‘ri keladi.

Ta’rixnavislik nazariyasiga ko‘ra, ko‘p hollarda biror shaxsning tug‘ilishi, imoratning barpo etilishi, biror nashrning chiqa boshlashi, umuman, yaralish, paydo bo‘lish bilan bog‘liq ta’rixlarda ta’rix moddasi ko‘zda tutilgan qiymatdan kam chiqadi. Buning yechimini topishda esa, asosan, muallif ishorasiga tayaniladi. Shoir biror harf yoki so‘zning abjad hisobi bo‘yicha yig‘indisini ta’rix moddasi yig‘indisiga qo‘shish kerakligi ishora qiladi. Masalan, biror so‘zning “yuzi”, “boshi” bo‘lsa birinchi harf, “miyoni” o‘rtadagi harf va hokazo. Bunda o‘ziga xos mantiq bor. Ya’niki paydo bo‘lgan shaxs, narsa, imoratning umri uzoq bo‘lsin, umriga umr qo‘shilsin degan mazmun bo‘ladi.

Shu o‘rinda yana bir jihatni ta’kidlash lozim. Muallif ta’rix moddasi uchun ham, qo‘shimcha so‘z uchun ham qalamga olingan voqelikka bog‘liq bo‘lgan so‘z yoki jumlanı topa olishi kerak. Xislatning ta’rixnavislikdagi mahorati shundaki, u bunga erisha olgan: ta’rix moddasi uchun asosning tarjimasi – “Turkiston sadosi”, qo‘shimcha uchun “millat”ning o‘rtasi “l”ning qiymati 30. Bu o‘rinda Xislatning badiiy mahoratiga tan berish kerak. Negaki, shoir aynan badiiy niyat uchun xizmat qiluvchi “millat” qo‘llagan. Mazmuni: Xirad (aql) piri “Turkiston sadosi” (“Sadoyi Turkiston”) millat o‘rtasida (millat so‘zi emas) yoyilishi tarix bo‘ladi, dedi.

Shakl va mazmunning bu darajada uyg‘unligi shoirning yuksak badiiy salohiyatidan darak beradi.

Xislatning o‘z davrida ro‘y bergan voqealarni qalamga olganligini toshkentlik Ahmad polvonga bag‘ishlanib, bevosita xalq dostonlari uslubida yozilgan “Qissai kurash az Xislat” nomli 64 misrali masnaviysida ko‘rish mumkin. Xislat o‘zining ilk ijodidan boshlaboq badiiy asar tilini xalq jonli so‘zlashuv tiliga mos va yaqin bo‘lishi kerakligini tushunib, o‘z she’rlarini keng ommaga tushunarli qilib yaratdi. Shuning uchun ham uning yozgan asarlari xalqqa tushunarli, sodda, ravon, shu bilan birga xalq kuylariga juda yaqin turadi. Shu o‘rinda tahlil uchun she’r matni keltirishni lozim topdik.

“Qissai kurash az Xislat”

*Eshiting, ey yoronlar, aytayin so ‘z,
Kiribon yangi yil, chun bo ‘ldi Navro ‘z.
Qilay sar soli Toshkandin hikoyat,
Qiziq bo ‘ldi tamoshosi nihoyat.

Kurash bo ‘ldi ko ‘ring dor-ul-omoni,
Yig‘ilib keldilar ko ‘b pahlavoni.

Bo ‘lub ulkanlara shul joyi manzur,
“Qalandarxona” der olamg ‘a mashhur.

Edi ul bir ajoyib joyi oliy,
Malaxdek bordilar odam misoli.

Eshiting bo ‘lsangiz oqil so ‘zimni,
Pusand etmas kishi ko ‘rsa so ‘zimni.

Bayon aylay siza Ahmad kuroshin,
Qilur maydonda ul Rustam taloshin.

Kurash olmoq uchun Ahmad u fursat,
Turubon o ‘rnidan Ahmad u zahot.

Ulug ‘lardan olib ruxsatni Ahmad,
Ilohi yetmasun jonig ‘a zahmat.

* * **

*Biqinda bor edi Ahmad yarosi,
Ko ‘runmay ko ‘ziga oqu qarosi.*

Belini bog ‘labon chun bordi maydon,

Ko ‘rub qaddini barcha bo ‘ldi hayron.

Xaloyiqlar berib fotiha ul dam,

Xizr bo ‘lsun debon san birla hamdam.

Olibon barchadin xolis duoni,

Faromush etmayin dildin Xudoni.

Ki Xo ‘ja pahlavon bo ‘lub talabgor,

Urubon lofini behuda bisyor.

Kelib ushladi Ahmadni beldin,

Qilib zo ‘r tebratolmadi yeridin.

Ki Xo ‘ja pahlavon zo ‘r qildi chandon,

Ayog ‘ini uzolmay bo ‘ldi hayron.

Yetibon oxiri Ahmadg ‘a navbat,

Ayog ‘ini uzub yerdin u fursat.

Ko ‘torib o ‘n minutda ko ‘kragiga,

Bosib o ‘n bir qadamda qo ‘ydi yerga.

Dedi: “Ey pahlavon, mandin yiqlidng,

Erur shul pahlavonlig ‘ sharti, bilding ”.

Ulug ‘lar buyrug ‘i ham ushbu erdi,

Ayog ‘i kim uzulsa, shul yiqlidi.

Xaloyiq qichqirib Ahmadni ul dam,

Berib, in ‘om behad qildi xurram.

Berib ba ‘zisi to ‘n, ba ‘zisi chakmon,

Xaloyiq qildilar in ‘om farovon.

Dedim Ahmadg ‘a man ming ofarinbod,

Muningdek zo ‘r bo ‘lurm ojamizod.

Dedi Xislat o ‘shal Ahmadg ‘a rahmat,

Xudo bergen ekan bu zo ‘ru quvvat.

She’rning bu matni A.Jalolov tomonidan nashrga tayyorlangan “G‘azallar” to‘plamidagi matndan farq qiladi. Avvalambor, bu matndagi

baytlar soni 24 ta bo‘lgani holda, to‘plamdagи baytlar soni 31 ta. Bundan tashqari, baytlar bayonida ham juda ko‘plab farqlar mavjud. Bizningcha, bu matn mazkur she’rning dastlabki nusxalaridan biri bo‘lsa kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki, Xislat Toshkentda haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqeani qalamga oladi. Shu jihatdan Xislatning bu qissasi o‘ziga xos she’riy “reportaj”ga o‘xshab ketadi. O‘sha kurash voqeasining guvohi bo‘lgan Usta Usmonning eslashicha, o‘sha kuni bilet 10 tiyin o‘rniga 15 tiyin bo‘lgan. Kurashdan so‘ng Ahmad polvon barcha sovg‘alarni tavoze bilan Xo‘ja polvonga taqdim etgan. Ahmad polvonning o‘sha paytlardagi shuhrati haqida ko‘plab maqolalar yozilgan. Shulardan birida quyidagi voqeа hikoya qilinadi: “1895 yilning iyun oyи Turkiston general-gubernatorining taklifi bilan polvon Ripperring Peterburgdan Toshkentga kelishi haqidagi mish-mishlar chinga aylanadi. Kolizey sirkida Rippel bilan Ahmad polvonning kurashi haqidagi xabar bir zumda shaharga tarqaladi. Kolizey binosi liq to‘lgan edi.

Uzoq kutilgan kurash daqiqalari ham yetib keldi. Kurash maydonida dastlab Rippel ko‘rindi. Uni to‘rt-besh kishi kuzatib chiqdi. Kolizey suv quygandek jimxit bo‘lib qoldi.

Ustiga yengil chopon, beliga belbog‘ bog‘lagan oyoq yalang Ahmad polvon ko‘rindi. Ikki polvonni maydonda ko‘rib turgan tomoshabinlarning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushayozdi. Chunki Rippel gavdada Ahmad polvondandan ikki baravar katta edi.

Ahmad polvon raqibiga nisbatan xipcha, bo‘yi novcharoq, qomati kelishgan edi. Rippel Ahmad polvonni ushlaboq ko‘tarib yerga uraman deb mo‘ljallagan shekilli, belbog‘idan ushlab ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Biroq Ahmad polvonni qimirlata olmadi, kurash sirlarini yaxshi bilgan Ahmad polvon Rippelni bir harakatdayoq dast ko‘tarib yerga urdi. Rippel anchagacha o‘rnidan turolmay qoldi”.

Usta Usmonning xotirlashicha, o‘shanda Rippel o‘rnidan bir amallab turgach, chinqirgancha: “San itvachchani peshanangdan otaman!” – deya so‘kinib, to‘pponchasi olib chiqish uchun ichkariga yelib kirib ketganda,

Ahmad polvonning qadrdonlari uni maydondan olib chiqib, zudlik bilan izvoshda eski shaharga jo‘nab ketishgan ekan.

Xislat Ahmad polvon qissasini yozar ekan, ko‘p o‘rinlarda u bilan xaloyiq o‘rtasidagi munosabat tasviriga e’tibor qaratadi. Bu bilan u xalq ko‘nglidagi g‘oliblikka, qolaversa, ozodlikka mushtoqlikni ifodalashga musharraf bo‘ladi. Ayni shu jihatdan “Ahmad polvon qissasi” Xislat ijodiy merosida alohida o‘rin tutadi.

Har qanday adibu shoir ijodida davr voqealari, xususan, o‘z shaxsiy hayotida ro‘y bergen hodisalar, quvonchli va qayg‘uli voqealarning aks etishi tabiiy. O‘sha davr ijodkorlarining aksariyatida kuzatish mumkin bo‘lgan hodisalardan yana biri bu – yaqin kishilarning vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyalardir.

Xislat ijodida ham xuddi shunday bir necha marsiya bor. Ulardan biri muxammas janrida she’r bo‘lib, yetti banddan iborat. U quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Oldi rahm etmay ajal, bir yori jonim bor edi,
Hur atvoru malaksiymo, pari ruxsor edi,
Bohayo nozuk tabiat, bir ajib dildor edi.
Kamsuxan, xush xulqu, dur andishu beozor edi,
Yig‘laram achchig‘ aning-chunkim shakkar guftor edi.*

Mazkur marsiya shoir Xislatning birinchi umr yo‘ldoshi Sarvixonning vafoti munosabati bilan yozilgan. Marsiya mazmunidan anglash mumkinki, she’rda shoirning o‘z umr yo‘ldoshiga bo‘lgan cheksiz mehri, muhabbatи aks etib turadi. O‘z qayg‘ularini, alamlarini quyidagicha bayon qiladi:

*Man nechuk toqat qilay, andog‘ quyosh ro‘ bo‘lsa xok,
To ‘kmayinmu ko ‘zlarimdin qo nqilib yoqamni chok,
Qilmayinmu hasratida zahru zardobni xo ‘rok,
Chekmayinmu andalib yanglig‘ fig‘oni dardnok,
Kim hayotim bog‘ida bitgan guli bahor edi.*

Yorini tasvirlar ekan, shoir uni “beedad fazlu hunar egasi”, “so‘zlaganda labidan dur to‘kilurdi”, “o‘z husniga mag‘rur bo‘lman xudojo‘y”, “ma’dani fahmu farosat”, “bohushu oqil”, “fazliyu husnig‘a xo‘blarni qoyil qoldirgan” singari qator ta’rifu tavsiflarni keltiradiki, bu uning ehtirosli qalb egasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Muxammasning so‘nggi bandi

Qoldi, do ‘stlar, ayrilib, to ‘rt yoshli duxtar bolasi...

deb boshlanadi. “...To‘rt yoshli duxtar bolasi...” Sadoqatxon ismli qiz bo‘lib, Mo‘minjon Toshqinning o‘z tazkirasida bergan Xislat haqidagi esdaliklarida Sadoqatxon 1945 yilda 35 yoshda ekanligini yozgan edi. Bu ma’lumotdan Sadoqatxonning 1910 yilda tavallud topgani ma’lum bo‘ladi.

Demak, Sadoqatxonning mehribon onasi uning to‘rt yoshlik chog‘ida vafot etgan bo‘lsa, u holda Sarvixon taxminan 1914 yilda vafot etgan bo‘ladi. Bundan mazkur marsiyaning yozilgan yili ham 1914 yil ekanligi ayon bo‘ladi. Bu vaqtda Xislat o‘ttiz ikki yoshda edi.

Xislat qalamiga mansub ikkinchi marsiya g‘azal janrida yozilgan bo‘lib, 10 baytdan iborat. Marsiya quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Tushub boshimg‘a, do ‘stlar, dog ‘i farzand,

Ko ‘zumg‘a onchunon tor o ‘ldi Toshkand.

Marsiyada shoir to‘rt yoshida vafot etgan Malohat ismli qizi va Nisbatxon ismli besh yoshli o‘g‘lining qizamiq kasali bilan og‘rib vafot etganini alam bilan tilga oladi. O‘g‘lini “O‘n bir kun gapirmay yostiqda yotib, olamdin ketti”, -deydi.

G‘azal quyidagicha yakun topadi:

Bu ikki bulbulimdin ayrilibon,

Yuray qandog‘ jahon bog‘ida xursand,

Tarahhum aylamay yoshu qarig‘a,

Qazo aldab, ajal bir kun berur pand.

Kim isqot etsa o ‘n oltini Xislat,

Bo ‘lur favtig‘a ta’rix “dog ‘i farzand”.

G‘azal yo‘lida bitilgan bu marsiyani Xislat mazkur janrning barcha tartibotlariga to‘la amal qilgan holda yaratgan. E’tiborlisi shundaki, bu o‘rinda Xislat g‘azal nafosati, marsiya hasrati yoniga ta’rix san’atini ham raqam qilgan. O‘z o‘rnida Xislat ta’rix san’ati qoidalariga ham amal qilgan.

Zotan, marsiya-ta’rixlarda tavallud munosabati bilan yozilgan ta’rixlarga zid ravishda moddai ta’rixdan biror raqam chiqarib (isqot qilinadi) tashlanadi.

*Kim isqot etsa o‘n oltini Xislat,
Bo ‘lur favtig ‘a ta’rix “dog ‘i farzand”.*

Ta’rix moddasi bo‘lmish “dog ‘i farzand” iborasidagi harflarning abjad hisobidagi umumiy yig‘indisi (adadi) 1346 ni tashkil etadi. Bundan 16 ni ayirsak, 1330 qoladi. Hijriy hisobdagisi bu sana 1911 yilga to‘g‘ri keladi.

Shu tarzda Xislat hasratini namoyon qiluvchi bu marsiya nafis san’at asari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda Xislat farzandlarining vafoti munosabati bilan bog‘liq yana bir marsiya xususida to‘xtalish lozim. Marsiya matni quyidagicha:

*Charxo sitamgaro sani zulmingni ilkidin,
G‘ayr az xudo borib kiming oldida dod etoy.*

*Zulming qo ‘lidan o ‘lmog ‘usi hech kim xalos,
Gar bo ‘lsa shoh asrukarm karam namoy.*

*Ul tifli begunohni vafoti zamonida,
Xasta ko ‘ngulg ‘a keldibu ta’rxi g ‘amfuzoy*

*Shavkat alam yuzini ko ‘rushdin yumib ko ‘z,
Yig ‘lab dediki oh urub – “sad darig ‘u voy”.*

Shiru shakar uslubida yozilgan bu satrlarni bevosita Xislat marsiyasining davomi deyish mumkin. Ammo bu marsiya Xislatning emas, balki uning do‘sti, safdoshi shoir Shavkat Iskandariy (Sidqiy Xondaqliqiy) Xislatning hasratli dardiga hamdard bo‘lib, ko‘ngildan chiqarib yozgan.

Ayni paytda bu satrlarda ta'rix san'ati mujassam topgan bo'lib, uni shoir Shavkat ta'rix san'atining "ta'miya" usulida, asosiy qoidalarga, ya'ni marsiya-ta'rixlarda ta'rix muddasidan biror son chiqarib tashlash (isqot qilish)ga amal qilib yozgan. Bu yerda ta'rix muddasi "sad darig'u voy" iborasidir. Uning abjad hisobi bo'yicha umumiyligi adadi 1331 ni tashkil qiladi. Bu meyordan ortiqchadir. Birinchi misradagi "alam yuzini" ishorasi bo'yicha "alam" so'zining birinchi harfi "alif"ning qiymati 1 (bir)ni 1331 dan ayirsak, 1330 hijriy sanasi kelib chiqadi. Bu milodiy 1911 yil (Xislat farzandlarining vafot sanasi)ga to'g'ri keladi.

Xislat ijodida davrdagi ayrim voqealar munosabati bilan yozilgan she'rlarning yana bir turkumi 1917 yilgi inqilobini mavzu qilib olingan she'rladir. 1917 yilgi fevral inqilobini Rossiya imperiyasi hududidagi boshqa millatlarda bo'lgani kabi Turkiston ziyorilari ham katta quvonch va umidlar bilan qarshiladilar. Buning zamirida yangi hukumat bizga hurriyat beradi, degan ishonch bor edi. Bu inqilobni Xislat ham xuddi shu ruhda kutib oldi. Shoirning "Inqilob" radifli g'azalida ayni shu umidvorlik va quvonch munosabati bilan ijod etilgan:

*Qon yutubon mehnat ahliko 'p asrlar bo 'ldli xor,
Ul jarohatli yurakka bo 'ldi malham inqilob.*

*Bekasu bechorayu ovvoralarg'a bong urub,
"Pardai zulmatni yirt" deb berdi ilhom inqilob*

*Xislato, bir safda o 'lg'il ul fidoyilar ila,
Sendayin bechoarlarg'a, bo 'ldi hamdam inqilob.*

Keyinchalik ro'y bergan Oktabr to'ntarishi, "Qo'qon muxtoriyati"ning qonga botirilishi kabi mash'um voqealardan so'ng "malhamu hamdam inqilob"ning "puch yong'oq" ekanligini anglagan ko'pgina shoirlar ijodida afsus-nadomat ohanglari ham seziladi.

Xislat yashagan davr qalamkashlarining ijodi kuzatilsa, mumtoz she’riyatning faqat an’anaviy ruhi bilan qanoatlanib qo‘ya qolganlari juda kam uchraydi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Ibrat, So‘fizoda, Kamiy, Tavallo, Sidqiy, Avaz kabi zamondosh shoirlar ijodida ham zamon sadosi baralla yangraydi. Xislatning “Ayladi”, “Jumhuriyat”, “Zamon sizlarga xo‘b boqdi”, “Davr bizning davrimiz”, “Paxta eking”, kabi she’rlari ham ijtimoiy-siyosiy mavzuda. Ishqiy va ma’rifiy mavzudagi nazmiy asarlariga qiyoslansa, bu she’rlarning badiiyati ancha past ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bizningcha, shoir bu kabi zamonasoz she’rlarni faqat mavjud davr taqozosi bilan, “yozish kerak” bo‘lgani uchungina yaratgan, xolos. Xalq orasida jonkuyar ma’rifatparvar va qo‘shiqchi shoir sifatida shuhrat qozongan Xislatni “baxtli hayot madh etilgan” she’rlar yozishga siyosiy tuzum majbur qildi. Bu davr mafkurasining har qanday iste’doddan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanganiga yana bir dalildir.

2.3. Shoир lirikasining janriy va badiiy xususiyatlari

Xislat o‘z ijodiy faoliyati davomida mumtoz she’riyatimizning o‘nga yaqin janrlarida ijod qildi. Shoирning bizga ma’lum adabiy merosining salmoqli qismini g‘azal janriga mansub she’rlar tashkil etadi.

Xislat adabiy merosidagi g‘azallarning aksariyati an’anaviy g‘azallardir. Bundan tashqari, shoир ijodida g‘azalning boshqa bir qator poetik shakllardagi turlari ham uchraydi. Masalan, shulardan biri – **muвашшах-г‘азал**. O‘zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lgan muвашшах bitish an’anasi Muqimiу, Furqat, Zavqiy, Kamiy singari shoirlar ijodida, ayniqsa, alohida o‘rin tutgani ma’lum. Shayxzoda bunga munosabat bildirib: “Lirikada muвашшах janri²³ (Yevropa adabiyotlarida akrostix) o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning II yarmida ko‘p avj olib ketib, adabiyot ahli o‘rtasida rasm bo‘lib qolgan edi. Hatto shu darajadaki, shoirlilik va nazmchilik hunari muвашшахчилликдаги mahorat bilan o‘lchanadigan bo‘lib qolgan edi”²⁴, - deb yozadi. Muвашшах-г‘азалларда kishi ismi ikki xil usul bilan hosil qilinadi: 1) g‘azal baytlaridagi toq misralarning birinchi harflari olinadi; 2) g‘azaldagi qofiyadosh misralarning birinchi harflari olinadi. Muвашшахчилликда asosan, birinchi turdagи shakl keng tarqalgan bo‘lib, Xislat ijodidagi muвашшахлар ham ayni shu shakl asosida qurilgan. Muвашшахда shoир kishi ismining kelib chiqishiga ko‘p hollarda ochiq ishora qilmaydi. Ba’zi hollarda esa g‘azalning muвашшахлигига dalolat qiladigan biror unsur keltiriladi. Buni Xislat muвашшах-г‘азалларидан birining so‘nggi baytida ko‘ramiz:

Nigorim nomini pinhon etib Xislat g‘azal ichra,

Dedi topsa o‘qib har kim o ‘shal donoyi insondur.

G‘azal baytlarining bosh harflaridan “Komilxon” ismini o‘qiymiz. Bu shaxs shoирning yaqinlaridan biri bo‘lishi mumkin.

²³ Shayxzoda muвашшахни negadir *janr* deb ataydi. E’tibor berilsa, muвашшах turli lirik janrlar tarkibida keluvchi poetik shakl ekanligi ko‘riladi.

²⁴ Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 91-92.

Shoirning “G‘am boridin bo‘ldi mani qaddim duto qandoq qilay” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali xususida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin. Bizningcha, G‘ulomxon ismiga muvashshah qilingan bu g‘azal Xislatning zamondoshi “G‘ulomiya” matbaasining egasi G‘ulomhasan Orifjonov ismiga bog‘langan. Negaki, nihoyatda ma’rifatparvar bo‘lgan bu zotning ismi o‘sha davrda ijod qilgan shoirlar Kamiy, Miskin, Sidqiy Xondayliqiy, Yusuf Saryomiy va boshqa bir qator shoirlarning turli janrlardagi she’rlarida muvashshah qilingan.

Muvashshahlar, asosan, sof ishqiy mavzuga bag‘ishlanadi. Garchi ularda ma’shuqaning ta’rifu tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo‘ladi. Xo‘s, unda muvashshahdagi kishi ismi bilan unda kuylangan ishqiy mazmunning qanday aloqasi bor? Bizningcha, bu borada Maqsud Shayxzoda bildirgan fikr juda o‘rinli: “...muvashshah kimning nomiga bog‘langan bo‘lsa, o‘sha g‘azalda ta’riflangan obraz ham aynan mazkur kishining o‘zidir, deb o‘ylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu g‘azalning kimga bag‘ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor busbutun boshqa bir kishi bo‘lishi mumkin”²⁵.

Darhaqiqat, muvashshahlarning mazmuniga e’tibor qilsak, yuqoridagi fikrning to‘g‘riligiga amin bo‘lamiz. Masalan, “Asilbek” ismiga muvashshah-g‘azalda:

*Labingni rashkidin la ’li Badaxshon,
Qizildur botmish ul go ‘yoki qona.*

Yoki

“Komilxon” ismiga bog‘langan muvashshah-g‘azalda:

*O ‘zi dilkash, so ‘zi shirin ajab ozoda bir tannoz,
Qorong ‘uni qilur ravshan, yuzi chun mohi tobondur.*

kabi baytlar keladi. Tabiiyki, baytlarda ma’shuqa tasviri haqida gap boryapti. She’r mazmunining Asilbek yoki Komilxonga aloqasi yo‘q.

²⁵ Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 92.

Xislat muvashshahlari “Ahmadjon”, “Abdullaxon”, “Ishoqxon”, “G’ulomxon”, “Hamdamxon”, “Asilbek”, “Sultonxon”, “Umarxon”, “Yusufxon”, “Xoji Muhammadxon”, “Komilxon”, “Oxundjon”, “Sultonxon”, “Hamdamxon”, “Rahimxon”, “Asqarxon”, “Alixon”, “Yusufxon”, “Muayyanxon” singari zamondoshlari nomiga bitilgan. Nomlari zikr etilgan kishilarning ismiga Xislat mansub bo‘lgan adabiy muhit vakillari ijodida ham bir qator muvashshahlar bitilgan. Xusan, Kamiyning Xolmuhammadxon, Alixon, Mirzo Shoshiyning Alixon, Miskinning Yusufxon, Alixon kabilarning nomiga bog‘lagan muvashshahlari bunga misoldir²⁶. Bu hol ismlari muvashshah qilingan kishilarning va uning ijodiy davrasи uchun yaqin shaxslar bo‘lgani haqidagi xulosaga olib keladi²⁷.

Miskin nazmiy merosida **tazmin** yo‘lida yozilgan bir g‘azal ham mavjud. Tazmin (ustoz maqomidagi yoki zamondosh) o‘zga shoир ijodidan bir misra yoki baytni olib, uning zaminida vazni va mazmunini saqlagan holda yangi she’r ijod etish ekani ma’lum. Atoulloh Husayniy tazminga: “lug‘atta bir nimani bir nima orasiga qo‘ymoqdur” deb ta’rif beradi²⁸. Tazmindagi asosga o‘xhashlik ham mazmun, ham shaklda bo‘ladi. Aniqroq aytganda, mashhur asarga bitilgan tazmin asosga mavzu, g‘oya, obraz, tasviriy vositalar, qofiya, radif, vazn, uslub jihatdan o‘xhash bo‘ladi. Xislatning “qildingu ketting” radifli g‘azalining birinchi bayti quyidagicha:

Azobu javringa oxir rizolar qildingu ketting,

Qaddim mehnat yuki birlan dutolar qildingu ketting.

Xislatning ushbu bayt bilan boshlanuvchi g‘azaliga Muqimiy qalamiga mansub g‘azallardin birining (aniqrog‘i do‘sti shoир Furqatga bag‘ishlab yozilgan g‘azalning) mazmuni asos bo‘lganini ko‘rish mumkin:

Ko ‘ngulni g‘uncha yanglig ‘tah-batah qon aylading ketting,

²⁶ Bu haqda qarang: “Bayozi Muhallo”. – T.: G‘ulomiya matbaasi, 1912. – B. 83-84; Karimbek Kamiy. Dilni obod aylangiz. – T.: “Ma’naviyat”, 1998. – B. 67-68; Mirzo Shoshiyning Alixon nomiga ikki muvashshahi mavjud. Qarang: “Bayozi Yangi”. –T.: Yakolev matbaasi, 1911, – B. 33, 58-59; Xislat. Tarannum. – T.: “MERIYUS”, 2009. – B. 70; O’sha manba, – B. 71.

²⁷ Nomlari qayd etilgan kishilar haqida fikr yuritish alohida tadqiqot uchun mavzu bo‘lishi mumkin. Shoир ijodi yuzasidan keyingi izlanishlar bu masalaga oydinlik kiritadi, deb hisoblaymiz - (SH.N.).

²⁸ Husayniy A. Badoyi’u-s-sanoyi’. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 250.

Xaloyiq ichra mayusu parishon aylading ketting.

Xislat ustozi Muqimiyning g‘azalidan mazkur qofiyani olar ekan, g‘azalning mavzusi, g‘oyasi, vazni va uslubini saqlagan holda yangi asar yarata olgan.

Xislat ijodida uchraydigan g‘azal turlaridan yana biri – **g‘azali musajja’**. “Musajja” – *saj’li*, ya’ni *ichki qofiyali* degan ma’noni anglatib, mumtoz adabiyotdagi qofiya bilan bog‘liq badiiy san’at. G‘azali musajja’da baytlardagi misralar to‘rt bo‘lakka teng bo‘linib, oldingi uch bo‘lak mustaqil holda qofiyalanadi, to‘rtinchi bo‘lak esa she’rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh so‘z bilan tugallanadi. Xislat g‘azaliyotida bu shaklda yozilgan ikki g‘azal mavjud bo‘lib, ularning matla’lari musajja’da emas, oddiy usulda bitilgan. Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida “musajja” g‘azallarning matla’ida saj’ kamroq rioyat qilibturlar. Agar rioyat qilinsa yaxshiroq bo‘lgusidur”, -deydi. Xislatning quyidagi g‘azali musajja’ usulida bitilgan:

G‘am boridin bo ‘ldi mani qaddim duto qandoq qilay,

Qilmay fig‘onu nolalar shomu sabo qandoq qilay.

Lutf aylamay, qilding sitam, zolim ekansan muncha ham,

Chiqmay tanimdan jonginam, bo ‘ldim judo qandoq qilay.

Avval mani yor aylading, oxir ajab xor aylading,

Xirqam ko ‘rib or aylading, man benavo qandoq qilay.

Mehnat bila dardu alam, yalg‘uz topib hijronu g‘am,

Oxir mani qildi adam, vovaylato, qandoq qilay.

Holim mani bo ‘ldi xarob, arzim eshit olijanob,

Bersang manga yuzming azob, bo ‘ldum rizo qandoq qilay.

Aylab eding ahdu amon, o ‘ynab kulib necha zamon,

Har kim agar bo ‘lsa yamon, bordur Xudo qandoq qilay.

Naylarman emdi mahvashim, ko ‘zdin oqar tinmay yoshim,

Bo ‘lsun fido sanga boshim, qilma jafo, qandoq qilay.

Xislat yurur Majnun bo ‘lub, shomu saharlar oh urub,

Ta’na qilur holin ko ‘rub, shohu gadoqandoq qilay.

E’tibor qilinsa, g‘azal matla’si Bobur ta’kidlaganidek, musajja’ emas. Bu holni shoirning “qaylarda qolding kechqurun” radifli g‘azalida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu g‘azallarda qo‘llangan musajja’ usuli ularning ohangdorligini g‘oyatda kuchaytirib, unga ayricha joziba va latofat bag‘ishlagan.

Xislat ijodida 5 baytdan 11 baytgacha bo‘lgan g‘azallar mavjud bo‘lib, ulardan o‘n sakkiztasi 7 baytli, sakkiztasi 8 baytli, to‘qqiztasi 9 baytli. Qolganlari esa turli hajmda.

Xislat **muxammas** janrida ham barakali ijod qildi. Umuman mumtoz she’riyatda musammat turkumiga kiruvchi lirik janrlar orasida muxammaslar nisbatan ko‘proq yaratiladi. Alisher Navoiy masnaviyini “maydoni vase”, ya’ni keng maydon degan bo‘lsa, XIX asr II yarmi – XX asr boshlaridagi adabiyot uchun muxammas shunday janrga aylandi. Xislat muxammaslari tahlili ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Hozircha bizga shoirning o‘n ikkita muxammasi ma’lum. Ularning beshtasi muallifning o‘z ijod namunasi, yettitasi esa, haziniy, Huvaydo, Furqat, Muqimiy (uchta muxammas), Shavkat g‘azallariga bog‘langan taxmislardir.

“Odatda biror shoir tomonidan o‘zga bir shoir g‘azaliga bog‘langan muxammas shu muxammas bog‘lovchining original asari sifatida qaraladi”²⁹. Xislat taxmis uchun ustoz va zamondosh shoirlarining mashhur g‘azallarni tanlar ekan, avvalo, ularning badiyyatini, poetik go‘zallikni chuqr his qiladi va uni davom ettirishga harakat qiladi. Zero, “taxmisni shoir o‘zga shoirlar ijodidagi biror g‘azaldan ta’sirlanish natijasida yaratadi va muxammasda o‘sha g‘azaldagi fikr rivojlantiriladi, o‘z davri yoki sharoitiga moslashtiriladi. Taxmisda har bir banddagи dastlabki uch misra muxammas bog‘lovchi shoirga taalluqli bo‘lsa, keyingi ikki misra g‘azal egasiga taalluqlidir”³⁰. Lekin bog‘lanayotgan muxammas faqat g‘azaldagi fikrni rivojlantirish bilangina cheklanmay, badiiy jihatdan muxammas bog‘lanayotgan g‘azaldan

²⁹ Abdug‘afurov A. Yali-yali kimniki // O‘zbek tili va adabiyoti 1963, 1-son. – B. 66-67.

³⁰ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. –T.: 1983, – B. 207.

qolishmasligi kerak.

Ma'lumki, muxammas bog'lash shoirdan katta mahorat talab qiladigan ijodiy an'ana. Bunda shoir taxmis uchun asos bo'lgan she'rning tub mohiyatini chuqur anglab yetishi, mazmuniy butunlikni saqlashi, baytlarga qo'shilgan uchliklarni shu bayt va g'azal mazmuni bilan uyg'unlashtirishi, baytlarda qo'llangan badiiy vositalarni takrorlamasligi, unda yangi timsollar va badiiy tasvir vositalarini qo'llashi, umuman, taxmis bog'lanayotgan g'azal darajasida yangi asar bitishi talab qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Xislatning ustoz Muqimiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari yuqoridagi talablarga to'liq javob beradi.

Xususan, Xislatning Muqimiy qalamiga mansub (Furqatning xorijga ketishi munosabati bilan yozilgan) mashhur g'azallardan biriga bog'langan taxmisi bu fikrni tasdiqlaydi:

*Parioso ko 'runmay o 'zni pinhon aylading ketding,
Mani devonadek besabru somon aylading ketding,
Misli andalib hajringda nolon aylading ketding,
Ko 'ngulni g'uncha yanglig ' tah-batah qon aylading ketding,
Xaloyiq ichra mayusu parishon aylading ketding.*

Yoki Furqat g'azaliga bog'langan muxammasi birinchi band:

*Solsa kokil uyolib turoringiz chiroylik,
Yuz jilva noz birlan kuloringiz chiroylik,
Bir-bir bosib burolib yuroringiz chiroylik,
Huru pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik,
Jannatni gullaridin gulzoringiz chiroylik*

Shoirning mazkur muxammaslari nihoyatda sodda, ravon, xalqona uslubda yozilgan. Bundan tashqari, Xislat tomonidan qo'shilgan misralar g'azal baytlari bilan nihoyatda uyg'un.

Xislat ijodida yetakchi janrlardan yana biri **masnaviydir**. Shoir o'zining noshirlilik, tarjimonlik faoliyatini aks ettiruvchi baytli masnaviysi, davrning ma'rifatparvar ziyolisi Mulla To'ychi Toshmuhammedovga bag'ishlangan

“To‘ychi hofiz” nomli 19 baytli va mashhur Ahmad polvonga bag‘ishlangan 48 baytli masnaviyatlari bu janrda yaratilgan asarlarning eng sara namunalari hisoblanadi.

Xislat mumtoz she’riyatda o‘zigacha yaratilgan adabiy an’analarga ijodiy yondashdi. O‘z iqtidori darajasida ularni munosib davom ettirdi. Navoiy, Bedil, Mashrab kabi Sharq mumtoz she’riyati namoyandalari ijodidan oziqlandi. Muqimiylar, Furqat, Kamiy, Miskin, Shavkat Iskandariy singari zamondosh shoirlar ijodiga ergashib, ular darajasida so‘z aytishga harakat qildi.

Quyida shoir ijodida keng qo‘llangan she’riy san’atlarning ba’zilari xususida to‘xtalamiz.

Tajohuli orif san’ati asosan ishqiy mavzudagi she’rlarda uchraydi. YA’ni oshiqning o‘zini “bilib turib bilmaslikka olgan holda” ma’shuqadan so‘rashi bu san’atning asosini tashkil etadi:

Orazimu yo guli ra’nomudur?

Tishlarimu yo duri bayzomudur?

Lablarimu yo Badaxshon la’limu,

YO magar ul yoquti xamromudur?

Shoirlar tarixda yuz bergen biror muhim voqeа-hodisani she’riy yo‘l bilan adabiy sahifalarga muhrlab borganlar. Bunda **ta’rix** san’atidan foydalanilgan. Ta’rixnavislik – adabiy hodisa sifatida Sharq adabiyoti, xususan, ko‘p asrlik o‘zbek adabiyotining keng rivojlangan an’analaridan biri. Ta’rix hayotiy-ijtimoiy zaruriyat natijasi o‘laroq, turli lirik janrlar zamirida yashab kelgan va o‘ziga xos g‘oyaviy-estetik vazifani o‘tagan. Adabiyotshunoslikda ta’rixga alohida janr sifatida qarash ham yo‘q emas. “Lekin ta’rix hajm jihatidan ham, misralarning qofiyalanish tartibi jihatidan ham belgili qat’iy qoidaga ega emas. Binobarin, shuning o‘zi ta’rixni janr deb atashga imkon bermaydi”³¹. Bundan tashqari, ta’rixlarning g‘azal, masnaviy, qit’a, ruboiy, fard singari janrlar tarkibida (asosan so‘nggi baytida) kelishi va she’r mazmuniga

³¹ Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – B. 131.

singdirilishi hisobga olinsa, uning janr emas, balki badiiy san'at ekanligi oydinlashadi.

Ma'lumki, so'nggi baytda yashiringan sanani topish uchun shoir biror harf, so'z yoki jumlaga ishora qiladi. Bu ta'rix moddasi (moddayi ta'rix) deb nomlanadi.

Ta'rixnavislik barcha davrlarda bo'lgan. Biroq XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek adabiyotida yangi bosqichda rivojlandi. Muqimiy, Sulaymonqul Rojiy, Mavlaviy Yo'ldosh, Kamiy, Yusuf Saryomiy, Miskin, Sidqiy kabi shoirlar qalamiga mansub ta'rixlar bu fikrni tasdiqlaydi. Davr voqeliklarini yoritishda Xislat ham o'z ijodida ta'rix san'atidan mohirona foydalangan. Xususan, shoirning o'z tomonidan "Armug'oni Xislat" bayozi chop etilishi munosabati bilan yozgan ta'rixi shunday xulosaga olib keladi:

*Bas jumal birla qalamni yuzidin Xislat yozib,
Qildi bir xurshid yanglig 'ta'rixin – "raxshon ajab"*

Bu yerda ta'rix moddasi, shoirning ishorasiga ko'ra, "raxshon ajab" iborasi bo'lib, abjad hisobi bo'yicha uning umumiyligi miqdori 1226 ni tashkil etadi. Milodiy yil hisobi bo'yicha bu 1810 yilga to'g'ri keladi. Bu sana "Armug'oni Xislat"ning nashr yili emas. Shu bois, Miskinning ishorasiga ko'ra, birinchi misradagi "jumal" va "qalam" so'zlarining yuzi (bosh harfi) bo'lgan "jim" (ج) va "qof" (ڧ)ning abjad hisobidagi miqdori 3 va 100 ni 1226 ga qo'shsak, 1329 hosil bo'ladi. Bu milodiy yilga aylantirilsa, 1911 yil sanasi kelib chiqadi. Bu "Armug'oni Xislat" bayozining nashr yilidir.

Xuddi shunday ta'rix-g'azallarni "Sadoyi Turkiston" gazetasi va "Qissai Barzuyi sher" nomli tarjima asarning nashri munosabati bilan yozilganini ko'rish mumkin³².

Xislat yana bir qator badiiy san'atlarni mahorat bilan qo'llagan:

Tanosub:

*Ko 'rub ruxsorini ko 'p daf'tan hayron bo 'lub qoldim,
Sabab shuldurki, goh ro'mol, goh to'n, to'ffi bilan ko 'rdim.*

³² Xislat.Tarannum. –T. MERIYUS. 2009, -B.125-132.

Kitobat:

*Zulm ila jabru sitamlarni qilib haddin fuzun,
Qomatimni “lom-alif” yanglig‘ duto qildi firoq*

Tansiq as-sifat:

*Jahonni charx urub oxir bir oshubi zamon ko ‘rdim,
Ajoyib siymtan, nozuknihol, mo ‘rchamiyon ko ‘rdim.*

Talmeh:

*O ‘xshar senga har dilbari zeboni demasman,
Hattoki o ‘shal Shirin- Layloni demasman.*

yoki

...Misli Majnun bo ‘lmisham ishqisi aro devonalar...

Shoir she’rlarining qofiya tizimida ham o‘ziga xoslik kuzatiladi. Xususan, bir necha o‘rinlarda ikki so‘zdan iborat qofiyalarni ko‘ramiz:

*Husningga jono boqib man mahvi hayron o ‘lmisham,
Dilg‘a chun ishqing tushub besabri somon o ‘lmisham.*

Baytda qo‘llangan zulqofiyatayn san’ati bilan birga qo‘shmisralardagi so‘zlar miqdorining tengligi natijasida muvozana san’ati yuzaga kelgan. Shoir g‘azallaridan ba’zilari qofiyaning musajja’ san’atiga asoslangan:

*...Oromijonim san eding, shirin zabonim san eding,
Ham mehribonim san eding, qaylarda qolding kechqurun.*

*Tashlab ketib begonavor, bir zolimi jononavor,
Aylab mani devonavor, qaylarda qolding kechqurun...*

Umuman, Xislat o‘z ijodida takrorlanmas badiiy topilma va obrazlar, go‘zal tashbehtar, badiiy tasvir vositalari ko‘plab uchraydi. Asrlar davomida ulkan ma’naviy xazinaga ega bo‘lgan o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘z so‘zini aytishga intildi va o‘zining salmoqli adabiy merosi bilan bunga erishdi. Bu Haybatullaxo‘ja Xislat ijodi o‘zbek mumtoz she’riyatining uzviy davomi ekani isbotidir.

Xislat asrlar davomida xalq to‘plagan ulkan xazinani tinmay o‘rgandi. Shoir she’rlarining xalq ichiga tez tarqalishi va bir qator xalq variantlariga ham ega bo‘lishining sababi, asarning sodda va shu bilan birga xalq jonli tilida yozilganligidir. U o‘z o‘rnida bu xazinaga munosib hissa qo‘sha oldi. Chunki shoirning yaratgan xalqning sevimli qo‘shiqlariga aylanib ketgan.

X U L O S A

Toshkent adabiy muhiti ko‘p asrlik o‘zbek mumtoz adabiyotining ajralmas qismi sifatida o‘zbek adabiyoti xazinasiga ko‘plab o‘lmas asarlar qoldirdi. Bu adabiy muhitning Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Tavallo, Karimbek Kamiy, Mulla Qo‘snoq Miskin, Sidqiy Xondaqliqiy kabi qator ijodkorlari qatorida shoir va tarjimon, noshir va xattot Sayyid Haybatullaxo‘ja Xislatning o‘ziga xos o‘rnini bor.

Bitiruv malakaviy ish doirasida olib borilgan izlanishlar natijalaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xislat XX asr boshlarida alohida adabiy estetik hodisa hisoblangan Toshkent adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan siymolaridan biri bo‘lib, u she’riyatga an’anaviy ishqiy mavzudagi she’rlari bilan kirib keldi. U sharq mumtoz she’riyatining darg‘alari Navoiy, Mashrab, Fuzuliy, Bedil kabi shoirlar ijodini mukammal o‘rgandi. Shoirning badiiy ijodida Muqimiy va Kamiyning ta’siri katta bo‘ldi. XX asr boshlarida yaratilgan bayoz va tazkiralarda Xislat qoldirgan ishqiy she’rlar uning o‘z ovoziga ega lirik shoir bo‘lganidan dalolat beradi.

2. Xislat noshir sifatida milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yetakchi manbalari bo‘lgan bayozlarning nodir namunalarini yaratdi. “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Hadyai Xislat”, “Tuhfai Xislat” kabi bayozlar shular jumlasidandir.

3. Shoir 1903-1904 yillarda bolalar uchun Ubayd Zokoniyning fors tilidagi “Go‘rba va mush” (“Mushuk va sichqon”) hikoyasini o‘zbek tiliga katta mahorat she’riy tarjima qilib o‘zi chop ettirdi. Shoir asarning asliga birmuncha ijodiy yondashishga, tarjimaga qisman bo‘lsa ham o‘z davrining ruhini singdirishga, til va uslub jihatidan “Go‘rba va mush”ni mакtab yoshidagi bolalarga manzur etishga harakat qildi. “Go‘rba va mush” XX asr boshlarida bir necha marotaba nashr qilingan. Xislat tarjimonlik faoliyatini davom ettirib,

qadimiy fors qahramonlik eposi “Dostoni Barzui sher”ni o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1911 yilda Toshkentda O.A.Porsev bosmaxonasida chop ettirdi.

Xislat katta-katta epik asarlar bilan bir qatorda g‘azal va muxammaslarni ham o‘zbek tiliga tarjima qildi. Masalan, u o‘z do‘sti Shavkatning “Savti Ho‘qancha xonish muxammasi Shavkat Iskandariy bar g‘azali Ahmad” nomli she’rini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Xislat bunday asarlarni tarjima qilayotganda she’rning uslubi, vazni, mazmun va g‘oyasini to‘liq saqlashga harakat qilgan.

4. Xislat qilqalam xattot sifatida 1906-1914 yillarda chiqqan bir necha bayozlarga kotiblik ham qilgan. 1911 yilda nashr etilgan “Bayozi yangi” shular jumlasidandir. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan ma’rifatparvar Umar Boqiy buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarini nasrga aylantirib, ommabop usulda qayta ishlab chiqadi va 1906 yilda Toshkentda Porsev bosmaxonasida katta nusxada nashr ettiradi.

5. Xislatning shoir sifatida shakllanishida dastlab o‘zbek adabiyotining zabardast siymosi Muqimiyning sezilarli ta’siri bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Kamiy, Miskin, Tavallo, Shavkat, A.Avloniy, Dilafgor, Toshxo‘ja Asiriy, Muhayyir, Oraziy, singari ma’rifatparvarlar bilan yaqin ijodiy aloqada bo‘ldi. Ular bilan umrbod do‘st tutindi. Xislat bu shoirlar bilan juda ko‘p adabiy majlislarda, qizg‘in mushoira va suhbatlarda bo‘ldi. Qo‘qonga, Xo‘jandga, Andijonga shoir do‘stlari oldiga tez-tez borib turdi. She’riy maktublar orqali aloqa qilib turdi. Xislat Muqimiylaridan she’riyatning qonun-qoidalarini o‘rganadi. Yosh shoir ustozlari va zamondoshlarining g‘azallariga ba’zi o‘rinda nazira, ba’zi o‘rinda muxammaslar bog‘ladi.

Xislatning Haziniy, Huvaydo, Furqat, Shavkat Iskandariy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari shu darajada hamohangki, chetdan qaraganda ularni bir-biridan farqlash qiyin.

Hatto Xislatning hajviy she’rlarida ham ustoz Muqimiylaridan ijodining ta’sir kuchini ko‘rishimiz mumkin.

6. Xislat o‘z davrining faol ziylisi sifatida ijtimoiy hayotda yuz bergen har bir o‘zgarishni kuzatib bordi va ijodida bu voqealarga munosabat bildirdi. Xususan, o‘z davrida katta ijtimoiy hodisa hisoblangan “Sadoi Turkiston” gazetasi, bir qator bayoz va asarlarning nashr etilishi munosabati bilan tabrik she’r yozib uni qutladi. Sho‘ro tuzumi munosabati bilan yozilgan ayrim she’rlar. Aytish mumkinki, bu mavzudagi she’rlar faqat mavjud davr taqozosi bilan yuzaga kelgan bo‘lib, shoirning umumiy adabiy merosiga nisbatan kichik bir qismni tashkil etadi.

7. Xislat o‘zbek mumtoz adabiyotining g‘azal, muxammas, masnaviy singari yetakchi janrlarida ko‘plab lirik asarlar yaratdi. G‘azalning muvashshah-g‘azal, musajja’-g‘azal kabi turlarida barakali ijod qildi. Huvaydo, Muqimiy, Furqat, Haziniy, Shavkat Iskandariy kabi shoirlar g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari bir ijodkor qalami ostidan chiqqandek yaxlitlik kasb etgan.

8. Xislatning lirik merosida talmeh, tanosub, tajohuli orif, ta’rix, mubolag‘a, kitobat, tansiq as-sifat, tashbih, tashxis singari san’atlar muvaffaqiyatlari qo‘llangan. Shu bilan birga shoir o‘z she’rlarining qofiya tizimiga ham alohida mas’uliyat bilan yondashgan. Lirik asarlarida zulqofiyatayn, musalsal qofiya turlarining ko‘plab qo‘llangani shoirning yuksak badiiy mahorat egasi bo‘lganining dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.- 174 b.
2. Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.
3. Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – T.: “Fan”, 2005. -24 b.
4. Afoqova N. Jadid g‘azaliyoti. – T.: “Fan”, 2005. -34 b.
5. A’zam A. Hijriy va milodiy taqvimlar kunma-kun mutanosiblik jadvallari. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2007. -268 b.
6. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar.– T.:“Ma’naviyat”, 2001, - 72 b.
7. Boltaboyev H. Mumtoz so‘z qadri. – T.: “Adolat”. 2004.- 192 b.
8. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi (IX – XIX asrlar). –T.: “O‘zbekiston”, 1993.-192 b.
9. Jabborov N. Ma’rifat nadir. – T.: “Ma’naviyat”, 2010, -112 b.
10. Jalolov A. Ozodlikni ulug‘lab. – T.: “Fan”, 1987. -50 b.
11. Jalolov A. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti. – T.: “Fan”, 1991. -155 b.
12. Jalolov A. O‘zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti. – T.: “Fan”, 1978. -168 b.
13. Jalolov A. O‘zganboyev X. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. – T.: Fan, 1993. -115 b.
14. Jo‘raboyev O. Haziniy To‘ra. – T.: “Fan”, 2007.- 136 b.
15. Zokirjon Furqat. Maqolalar to‘plami. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. -152 b.
16. Ishoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: “Zarqalam”, 2006. -128 b.
17. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. (Birinchi kitob). – T.: “O‘zbekiston”, 2008. -536 b.
18. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”, 2009. -448 b.

19. Mahmudov G‘. Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzui. – T.: “O‘zbekiston”. 2007. -294 b.
20. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi ASN, 1976. -168 b.
21. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: “Fan”. 1995. -160 b.
22. Said Z. Tanlangan asarlar. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi ASN, 1974. -208 b.
23. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.: “O‘qituvchi”, 1995. -112 b.
24. O‘zbek adabiyoti tarixi (besh tomlik) IV tom. – T.: “Fan”, 1980. -420 b.
25. O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at (Tuzuvchilar P. Shamsiyev, S. Ibrohimov) . – T.:Fan, 1953. -454 b.
26. Qayyumov P.Tazkirat ush-shuaro. 2-kitob. – T.: O‘zR FA Davlat Adabiyot muzeyi tahrir bo‘limi, 2006. -182 b.
27. Qayumi P. Tazkirai Qayyumi. Uch jildlik. Jild I. – T.: O‘zR FA qo‘lyozmalar instituti tahriri nashriyot bo‘limi, 1998. -246 b.
28. Qayumi P. Tazkirai Qayumi. Uch jildlik. Jild II. – T.: O‘zR FA qo‘lyozmalar instituti tahriri nashriyot bo‘limi,1998. -469 b.
29. Qayumi P. Tazkirai Qayyumi. Uch jildlik. Jild III. – T.: O‘zR FA qo‘lyozmalar instituti tahriri nashriyot bo‘limi,1998. -714 b.
30. Qayumov A. She’riyat jilolari. – T.: “O‘qituvchi”, 1997. -128 b.
31. Qodiriy H. Otam haqida.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi ASN, 1976. -168 b.
32. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2004. -464 b.
33. Qosimov B. Izlay-izlay topganim. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. - 272 b.
34. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. – T.: “Ma’naviyat”, 2002. -400 b.
35. Qosimov B. Salom, kelajak. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. -280 b.
36. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. -600 b.

37. Qosimov B. va b. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: “O’qituvchi” NMIU, 2004. 146-b.
38. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr”, 2010. -400 b.
39. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O‘qituvchi, 1997. -240 b.
40. Hamidova M. Qo‘lyozma bayozlar - adabiy manba. – T.: “Fan”, 1981. - 122 b.
41. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008. - 194 b.
42. Abdulhakim N. Ozodlikka to‘langan tovon // “Tafakkur” jurnali. –T.: 2005. №4, 12-17 betlar.
43. Asadullayev S., Oqilov M. Ta’rix aytish san’ati // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 1972. №4, 67-70 betlar.
44. Afoqova N. She’r vaznini belgilash usullariga oid. // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 2003. №6, 44-46 betlar.
45. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy-ozodlik va istiqlol g‘oyalari // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 1996, №4, 16-23 betlar.
46. Jo‘rayev N. Ta’rix she’rlar jozibasi va sirlari // Til va adabiyot ta’limi. – T.: 2001. №5, 45-51 betlar.
47. Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 j-lik. II jild. -T.: Ma’naviyat, 1998. -304 b.
48. Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 j-lik. I jild. -T.: Ma’naviyat, 1998. - 272 b.
49. Zavqiy. Ajab zamona. –T.: “Sharq”, 2003. -176 b.
50. Kamiy K. Dilni obod aylangiz. –T.: “Ma’naviyat”, 1998. -160 b.
51. Miskin. Savti dugoh. –T.: Akademiya, 2009. - 64 b.
52. Tirik satrlar. (To‘plovchi: M. Zokirov)-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1968. - 293b.
53. Xondayliqiy S. Tanlangan asarlar. –T.: “Ma’naviyat”, 1998. - 304 b.
54. Xislat. Tarannum. –T.: “MERIYUS”, 2009. -200 b.
55. O‘zbek Milliy uyg‘onish adabiyotiga materiallar. – T.: “Universitet”, 2004. - 108 b.